




TA'LIM VA FAN SOHASIDA KASBIY
MALAKALARNI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA
TARMOQ KENGASHI

KASBIY STANDART

OLIV TA'LIM TASHKILOTI USLUBCHILARI



“Oliy ta’lim tashkiloti uslubchilari” kasbiy standarti 2025-yil 18-dekabrdagi Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo’yicha Respublika kengashi majlisining 114-son bayoni bilan tasdiqlangan “Kasbiy standart shakli” hamda Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti direktorining 2025-yil 19-dekabrdagi 55-son buyrug’i bilan tasdiqlangan “Kasbiy standartlarni ishlab chiqish va yangilash metodologiyasi”ga muvofiq, Ta’lim va fan sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo’yicha tarmoq kengashi tomonidan ishlab chiqilgan.

KASBIY STANDART

Oliy ta'lim tashkiloti uslubchilari

Reyestr raqami:

UZ-KS-2026-T1.0-0155



I. Umumiy ma'lumotlar

1. Kasbiy standartning qo'llanilish sohasi: Ushbu kasbiy standart "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish bo'yicha uslubchi", "Oliy ta'lim tashkiloti inspektori", "Oliy ta'lim tashkilotlarini o'quv-uslubiy va metodik ta'minlash bo'yicha professional-mutaxassis", "O'quv jarayonini metodik ta'minlash va darsliklar bo'yicha uslubchi", "Ta'lim sifatini baholash va akkreditatsiya bo'yicha uslubchi", "Kechki (smenali) ta'lim uchun o'quv-metodik ishlar bo'yicha uslubchi", "Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish bo'yicha metodist", "Malaka oshirish va qayta tayyorlash instituti professional- mutaxassisi", "Ma'naviyat, jismoniy tarbiya va sport bo'yicha uslubchi-yo'riqchi" kasblari bo'yicha xodimlarga malaka talablarini belgilash, ularning malakasini mustaqil baholash, ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, shuningdek, tashkilotlarda inson resurslarini boshqarish sohasi va boshqa faoliyat yo'nalishlarida keng turda qo'llaniladi.

2. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

davlat ta'lim standartlari – davlat tomonidan ta'limning mazmuni va sifatiga nisbatan belgilanadigan talablar majmui;

davlat ta'lim talablari – ta'limning tuzilmasiga, mazmuniga va uni amalga oshirish shart-sharoitlariga, shuningdek, ta'lim oluvchilarning jismoniy, shaxsiy, intellektual, ilmiy hamda kasbiy sifatlariga qo'yiladigan majburiy talablar;

guruh – Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (IFUT) bo'yicha iqtisodiy faoliyatning keng sohasini o'z ichiga olgan faoliyat turi;

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan yoki rejali, lekin institutsionallashtirilmagan (oiladagi, ish joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga oladigan) ta'lim;

kasbiy standart – kasbiy faoliyatning muayyan sohasida (turida) zarur bilim, mahorat, ko'nikma, ish staji, malaka darajasi, mehnatning mazmuni, sifati va shart sharoitlari, ishga bo'lgan munosabatiga qo'yilgan minimal talablarni belgilaydigan hujjat. Kasbiy standart nomi IFUT ga muvofiq guruh (yoki kichik guruh) nomi yoki

kasbiy faoliyat sohasi (turi) nomi yoki qamrab olingan kasblarga mutanosib nomdan kelib chiqib nomlanadi;

kompetensiya – shaxsning mehnat vazifani to‘liq, to‘g‘ri va sifatli bajarish uchun egallangan bilim, mahorat va amaliy tajribalarini turli sharoitlarda qo‘llay olish qobiliyati;

ko‘nikma – shaxsning mehnat vazifani to‘g‘ri bajarishga imkon beradigan bilim va mahoratlarini ma‘lum bir sharoitda avtomatik tarzda qo‘llay olish qobiliyati;

mahorat – biror masala (mantiqiy, hissiy, ijodiy va amaliy tafakkurni qo‘llash)ni hal etish va faoliyatni amalga oshirish maqsadida bilimlarini qo‘llash va kompetentligini namoyish etish qobiliyati;

malaka – shaxsning kasbiy faoliyatning muayyan turini bajarishga tayyorgarligini ifodalaydigan, ma‘lumot to‘g‘risidagi tegishli hujjat bilan tasdiqlanadigan bilim, qobiliyat, mahorat va ko‘nikmalar darajasi;

malaka berish – rasmiy ta‘lim va o‘z-o‘zini o‘qitish orqali olingan bilim va ko‘nikmalarni baholash jarayoni. Ushbu baholash natijalariga ko‘ra sertifikat, diplom yoki malakani tasdiqlovchi boshqa hujjat (malaka darajasi) beriladi;

malaka darajasi – murakkablik, nostandart ish harakatlari, mas‘uliyatlik parametrlari bo‘yicha farqlanadigan xodimlarning bilimlari, ko‘nikmalari, shaxsiy va kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablarga muvofiqlik darajasi;

Milliy malaka tizimi (MMT) – kasbiy malakalar bo‘yicha mehnat bozori talabi hamda ta‘lim tizimi (jumladan, norasmiy va informal ta‘lim) taklifini muvofiqlashtiruvchi hamda tartibga soluvchi huquqiy va institutsional vositalar va mexanizmlar majmui;

Milliy malakalar ramkasi (MMR) – bu kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan barcha kompetensiyalarni tavsiflovchi malaka darajalari to‘plamidan iborat tuzilma;

mutaxassislik – malaka berish bilan yakunlanadigan muayyan kasbiy tayyorgarlik turining nomi;

nodavlat ta‘lim tashkiloti – davlat ta‘lim standartlari, davlat ta‘lim talablari va o‘quv dasturlariga muvofiq ta‘lim xizmatlari ko‘rsatish faoliyatini amalga oshirish huquqini beradigan litsenziya asosida yoki xabardor qilish tartibida ta‘lim xizmatlari ko‘rsatuvchi yuridik shaxs;

noformal ta‘lim – ta‘lim xizmatlarini ko‘rsatuvchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan, aniq maqsadga yo‘naltirilgan va rejali ta‘lim bo‘lib, u shaxsning butun hayoti davomida ta‘lim olishida rasmiy ta‘limiga qo‘shimcha va (yoki) muqobildir;

pedagog – ta‘lim va tarbiya sohasida kasbiy faoliyatni amalga oshiruvchi hamda tegishli ma‘lumotga, kasbiy tayyorgarlikka va ma‘naviy-axloqiy fazilatlariga ega bo‘lgan jismoniy shaxs;

pedagogik faoliyat – ta‘lim berish, tarbiyalash, baholash va rivojlantirishga qaratilgan professional faoliyat;

tajriba – mehnat faoliyatini amalga oshirish jarayonida egallanadigan bilimlar va mahoratlar;

ta'lim – ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon;

ta'lim kampusi – yagona hududda birlashtirilgan o'quv binolarini, ilmiy-tadqiqot institutlarini (markazlarini), ishlab chiqarish majmualari va texnoparklarni, ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining vaqtincha yashash joylarini, laboratoriyalarini, axborot-resurs markazlarini (kutubxonalarni), sport inshootlarini, umumiy ovqatlanish obyektlarini o'z ichiga olgan binolar hamda inshootlar majmuidan iborat bo'lgan, o'quv jarayoni, ma'naviy-axloqiy tarbiyaning yuqori samaradorligini ta'minlaydigan ta'lim-tarbiya muhiti;

ta'lim tashkilotlari attestatsiyasi – ta'lim tashkilotlarining faoliyatini baholash, davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari hamda o'quv dasturlariga muvofiq kadrlar tayyorlash mazmuni, darajasi va sifatini aniqlash bo'yicha davlat nazoratining asosiy shakli;

ta'lim tarbiya jarayoni ishtirokchilari – ta'lim oluvchilar, voyaga yetmagan ta'lim oluvchilarning ota-onalari yoki boshqa qonuniy vakillari, pedagog xodimlar va ularning vakillari;

tarbiya – aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon;

tarbiyaviy ish – talabalar shaxsini shakllantirish va ijtimoiy moslashuviga yo'naltirilgan faoliyat;

tarmoq malaka ramkasi – tarmoqda tan olinadigan malaka darajalari tizimlashtirilgan tavsifi;

o'quv metodik majmua – darslik, mashq daftari, o'qituvchi uchun metodik qo'llanma, darsliklarning multimediali ilovadan iborat majmua.

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" 2020-yil 29-sentabrdagi O'RQ -637-son qonuni;

O'zbekiston Respublikasining "Pedagogning maqomi to'g'risida" 2024-yil 1-fevraldagi O'RQ-901-son qonuni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 16-oktabrdagi PF-158-son farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 30-sentabrdagi PQ-345-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazilar Mahkamasining "Davlat ta'lim standartlari

to'g'risida" 1998-yil 5-yanvardagi 5-sonli qarori bilan tasdiqlangan nizomi;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ayrim fanlar chuqur o'rganiladigan davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida" 2008-yil 7-avgustdagi 173-sonli qarori;

O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalarida ikkinchi va undan keyingi ta'limni olish tartibi to'g'risida»gi nizomi (ro'yxat raqami 1844, 21-avgust, 2008-y.);

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" 2000-yil 16-oktabrdagi 400-sonli qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" 2001-yil 16-avgustdagi 343-sonli qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2001-yil 4-oktabrdagi 400-sonli qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi to'g'risida" 2012-yil 6-iyuldagi 200-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Magistratura to'g'risida" 2015-yil 2-martdagi 36-sonli qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 2016-yil 24-avgustdagi 275-son qarori, O'zMSt 640:2025 (IFUT-2.1);

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat ta'lim muassasalari hamda nodavlat ta'lim tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida nizomi" 2019-yil 7-iyundagi 470-son qarori;

Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori O'zMSt 641:2025, (MMK-2025).

3. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi qisqartirishlar qo'llaniladi:

IFUT – iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi;

TMR – Tarmoq malaka ramkasi;

T/r – tartib raqami.

II. Kasbiy standartning pasporti

1.	Kasbiy standartning nomi:	Oliy ta’lim tashkiloti uslubchilari																				
2.	Kasbiy faoliyatning asosiy maqsadi:	Oliy ta’lim tashkiloti uslubchisi kasbiy standarti -bu oliy ta’lim muassasalarida uslubchilik faoliyatini amalga oshiruvchi mutaxassislarning kasbiy vazifalari, majburiyatlari, zarur bilim, ko’nikma va kompetensiyalarini belgilovchi me’yoriy hujjatdir. Mazkur standart oliy ta’lim tizimida ta’lim jarayonini metodik jihatdan ta’minlash, o’quv-uslubiy ishlarni samarali tashkil etish hamda ularning sifatini oshirishga qaratilgan talablarni o’z ichiga oladi.																				
3.	IFUT bo’yicha seksiya, bo’lim, guruh, sinf va kichik sinf:	Q Seksiyasi: Ta’lim 85 Ta’lim 85.4 Oliy ta’lim 85.40 Oliy ta’lim 85.40.0 Oliy ta’lim																				
4.	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni:	Ushbu kasbiy standart oliy ta’lim tashkilotlarida faoliyat yurituvchi uslubchilarning asosiy vazifalari, funksiyalari hamda ularga qo’yiladigan malaka talablarini belgilaydi. Standart ta’lim jarayonini metodik jihatdan ta’minlash, o’quv-uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish va takomillashtirish, pedagogik faoliyatni qo’llab-quvvatlash hamda ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, unda uslubchilarning zarur kasbiy bilimlari, amaliy ko’nikmalari va kompetensiyalari, ularning mas’uliyati hamda faoliyat samaradorligini baholash mezonlari aks ettiriladi.																				
5.	Qamrab olingan kasblar ro’yxati va malaka darajasi:	<table><tr><th>Kasblar kodi va nomi:</th><th>TMR dagi malaka darajasi:</th></tr><tr><td>23510001 - Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish bo’yicha uslubchi</td><td>6</td></tr><tr><td>23510007- Oliy ta’lim tashkiloti inspektori</td><td>6</td></tr><tr><td>23510008 - Oliy ta’lim tashkilotlarini o’quv-uslubiy va metodik ta’minlash bo’yicha professional-mutaxassis</td><td>6</td></tr><tr><td>23510010-O’quv jarayonini metodik ta’minlash va darsliklar bo’yicha uslubchi</td><td>6</td></tr><tr><td>23510016-Ta’lim sifatini baholash va akkreditatsiya bo’yicha uslubchi</td><td>6</td></tr><tr><td>23510006 Kechki (smenali) ta’lim uchun o’quv-metodik ishlar bo’yicha uslubchi</td><td>6</td></tr><tr><td>23510018 - Xorijiy tillarni o’rganishni ommalashtirish bo’yicha metodist</td><td>6</td></tr><tr><td>23591005 - Malaka oshirish va qayta tayyorlash instituti professional- mutaxassisi</td><td>6</td></tr><tr><td>23591006 - Ma’naviyat, jismoniy tarbiya va sport bo’yicha uslubchi-yo’riqchi</td><td>6</td></tr></table>	Kasblar kodi va nomi:	TMR dagi malaka darajasi:	23510001 - Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish bo’yicha uslubchi	6	23510007- Oliy ta’lim tashkiloti inspektori	6	23510008 - Oliy ta’lim tashkilotlarini o’quv-uslubiy va metodik ta’minlash bo’yicha professional-mutaxassis	6	23510010-O’quv jarayonini metodik ta’minlash va darsliklar bo’yicha uslubchi	6	23510016-Ta’lim sifatini baholash va akkreditatsiya bo’yicha uslubchi	6	23510006 Kechki (smenali) ta’lim uchun o’quv-metodik ishlar bo’yicha uslubchi	6	23510018 - Xorijiy tillarni o’rganishni ommalashtirish bo’yicha metodist	6	23591005 - Malaka oshirish va qayta tayyorlash instituti professional- mutaxassisi	6	23591006 - Ma’naviyat, jismoniy tarbiya va sport bo’yicha uslubchi-yo’riqchi	6
Kasblar kodi va nomi:	TMR dagi malaka darajasi:																					
23510001 - Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish bo’yicha uslubchi	6																					
23510007- Oliy ta’lim tashkiloti inspektori	6																					
23510008 - Oliy ta’lim tashkilotlarini o’quv-uslubiy va metodik ta’minlash bo’yicha professional-mutaxassis	6																					
23510010-O’quv jarayonini metodik ta’minlash va darsliklar bo’yicha uslubchi	6																					
23510016-Ta’lim sifatini baholash va akkreditatsiya bo’yicha uslubchi	6																					
23510006 Kechki (smenali) ta’lim uchun o’quv-metodik ishlar bo’yicha uslubchi	6																					
23510018 - Xorijiy tillarni o’rganishni ommalashtirish bo’yicha metodist	6																					
23591005 - Malaka oshirish va qayta tayyorlash instituti professional- mutaxassisi	6																					
23591006 - Ma’naviyat, jismoniy tarbiya va sport bo’yicha uslubchi-yo’riqchi	6																					

III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	kodi va nomi	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
1	23510001 Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish bo'yicha uslubchi	A1.6	Ta'lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va raqamli ta'lim yechimlarini joriy etishni metodik jihatdan ta'minlash	A1.01.6	Bo'limning barcha faoliyati va xodimlarini umumiy boshqarish, Oliy ta'lim tashkilotidagi mavjud kompyuter texnologiyalarining dasturlarini to'g'ri ishlashini nazorat qilish
				A1.02.6	Oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv lavozimida zarur bo'lgan kasbiy va tashkilotchilik qobiliyatlariga, ta'lim sohasida rahbarlik ish tajribasi va stajiga, faoliyat turi va vakolatlari doirasida tegishli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish
				A1.03.6	Namunaviy shaxsiy fazilatlarga-intellekt, madaniyatli, yetakchilik, ijodiy qobiliyatlar, xushmuomilalik, tashkilotchilik, tashabbuskorlik va tadbirkorlik qobiliyatlariga ega bo'lish, mas'uliyat hissi, mustaqil qaror qabul qilish va ish tutish, qat'iy harakat qilish, muassasa strategik maqsadlariga erishishni ta'minlash xususiyatlarga ega bo'lish
		A2.6	Ta'lim jarayonini raqamlashtirish holatini tahlil qilish, samaradorligini baholash va takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish	A2.01.6	Oliy ta'lim tashkilotining masofaviy o'qitish bo'yicha olib boriladigan barcha ishlariga rahbarlik qilish hamda masofaviy o'qitishni tashkil etish bo'yicha mahalliy va chet el oliy o'quv yurtlari bilan aloqalar o'rnatish
				A2.02.6	Oliy ta'lim tashkilotida Internet tarmoqlari, (E-mail) elektron pochta xizmatlarini talab darajasida ishlashini nazorat qilib borish, xabar va yangiliklarni o'z vaqtida qabul qilinishi va tarqatilishini nazorat qilish

				A2.03.6	Kompyuter operatorlari ishini nazorat qilish, Oliy ta'lim tashkiloti kompyuter zahirasini zamonaviy kompyuterlar hisobiga oshirish va mavjud kompyuterlarni takomillashtirib borish
2	23510007 Oliy ta'lim tashkiloti inspektori	B1.6	Oliy ta'lim tashkilotida ta'lim jarayonining amaldagi qonunchilik, davlat ta'lim standartlari, normativ-huquqiy hujjatlar va ichki tartib-qoidalarga muvofiqligini nazorat qilish	B1.01.6	Talabalarining fanlardan olgan baholarini har semestrda semestr vedemostlariga o'tkazishini tahlil qilib borish
				B1.02.6	Oliy ta'lim tashkilotidagi fakultetlar, kafedralar, akademik litseyler va boshqa tarkibiy bo'linmalarining o'quv, o'quv-uslubiy, ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-tadqiqot, kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash ishlarining, Hay'at va Ilmiy kengash qarorlari va boshqa ta'lim sohasidagi me'yoriy hujjatlarning monitoringini tashkil qilish
				B1.03.6	Yangi qabul qilingan 1-kurs talabalariga reyting daftarchalari, talabalik guvohnomasini tayyorlab berish va ularni Oliy ta'lim tashkiloti strukturasi bilan tanishtirishni tashkil qilish, Yarim yillik va yillik hisobotlar-uchun ma'lumotlar berishini nazorat qilish
				B1.04.6	Bo'lim boshlig'i tomonidan topshirilgan boshqa ishlarni bajaradi
		B2.6	O'quv jarayonining tashkil etilishi, dars jadvali, mashg'ulotlar sifati va pedagogik yuklamalar bajarilishini tekshirish, talabalar davomatini,	B2.01.6	O'z faoliyatiga taalluqli Nizom, yo'riqnomalar va me'yoriy hujjatlarni, Oliy ta'lim tashkiloti ichki tartib-qoidalari, me'yoriy hujjatlarini bilishi
				B2.02.6	Namunaviy shaxsiy fazilatlariga-intellekt, madaniyatli, ijodiy qobiliyatlar, xushmuomilalik va tashabbuskorlik qobiliyatlariga ega bo'lish, mas'uliyat hissi, mustaqil qaror qabul qilish va ish tutish, qat'iy harakat qilish, muassasa strategik maqsadlariga erishishni ta'minlash xususiyatlariga ega bo'lishi

			bilimlarni baholash va reyting tizimining to'g'ri qo'llanilishini monitoring qilish	B2.03.6	Oliy ma'lumotga ega bo'lishi, o'z sohasiga tegishli masalalar bo'yicha axborot va ma'lumotlardan xabardor bo'lishi zarur
				B2.04.6	Bo'limning barcha hujjatlarini yuritish, buyruqlarni rasmiylashtirish, yig'ma jildlarga o'tkazish, buyruqdan ko'chirmalar tayyorlash, saqlanayotgan hujjatlarni yil yakunida arxivga saqlash uchun topshirish, kirish va chiqish xatlari, shuningdek, turli so'rovnomalarni ro'yxatdan o'tkazish
3	23510008 Oliy ta'lim tashkilotlarini o'quv-uslubiy va metodik ta'minlash bo'yicha professional-mutaxassis	D1.6	Oliy ta'lim tashkilotlarida o'quv-uslubiy va metodik ta'minotni davlat ta'lim standartlari, malaka talablari va normativ-huquqiy hujjatlar asosida tashkil etish, o'quv rejalari, fan dasturlari, sillabuslar, o'quv-uslubiy majmualar va metodik qo'llanmalarni ishlab chiqish, ekspertizadan o'tkazish va takomillashtirishda ishtirok etish	D1.01.6	Oliy ta'lim tashkilotlarida o'quv-uslubiy va metodik ta'minotni davlat ta'lim standartlari, malaka talablari hamda amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida tashkil etish va muvofiqlashtirish
				D1.02.6	Bakalavriat va magistratura ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv rejalari, fan dasturlari va sillabuslarni ishlab chiqish jarayonida ishtirok etish hamda ularning me'yoriy talablarga muvofiqligini ta'minlash
				D1.03.6	O'quv-uslubiy majmualar, metodik qo'llanmalar va boshqa o'quv adabiyotlarini tayyorlash, ekspertizadan o'tkazish va takomillashtirish bo'yicha metodik yordam ko'rsatish
				D1.04.6	O'quv-uslubiy hujjatlarning mazmuni, tuzilmasi va kompetensiyaviy yondashuv asosida ishlab chiqilishini nazorat qilish
				D1.05.6	Fanlar bo'yicha o'quv-uslubiy hujjatlarni muntazam yangilab borish va ularning dolzarbligini ta'minlash
				D1.06.6	O'quv-uslubiy va metodik hujjatlar sifatini tahlil qilish, aniqlangan kamchiliklar bo'yicha xulosalar va takliflar tayyorlash

		D2.7	O'quv-uslubiy va metodik faoliyat natijalari bo'yicha tahliliy ma'lumotlar, xulosalar va takliflar tayyorlash, ta'lim sifatini ta'minlash masalalarida oliy ta'lim tashkilotlari, tegishli vazirlik va idoralar bilan hamkorlikni muvofiqlashtirish	D2.01.6	O'quv-uslubiy va metodik faoliyat natijalari bo'yicha tahliliy ma'lumotlarni muntazam yig'ish, umumlashtirish va tizimlashtirish
				D2.02.6	Ta'lim jarayonining o'quv-uslubiy va metodik ta'minoti holatini baholash hamda uning samaradorligini tahlil qilish
				D2.03.6	Olingan tahliliy ma'lumotlar asosida xulosalar va ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqish
				D2.04.6	O'quv-uslubiy va metodik faoliyat natijalari yuzasidan axborotnomalar, ma'ruzalar va hisobotlar tayyorlash
				D2.05.6	Ta'lim sifatini ta'minlash masalalarida oliy ta'lim tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish va muvofiqlashtirish
				D2.06.6	Tegishli vazirlik va idoralar bilan metodik va axborot almashinuvi jarayonlarini tashkil etish
4	23510010 O'quv jarayonini metodik ta'minlash va darsliklar bo'yicha uslubchi	E1.6	O'quv jarayonini davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlariga muvofiq metodik jihatdan ta'minlash	E1.01.6	O'quv jarayonini davlat ta'lim standartlari, malaka talablari va tasdiqlangan o'quv dasturlariga muvofiq tashkil etilishini metodik jihatdan ta'minlash
				E1.02.6	O'quv rejalari, fan dasturlari va sillabuslarning davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini o'rganish va tahlil qilish
				E1.03.6	Ta'lim jarayonining mazmuni, shakli va usullarini me'yoriy talablarga mos holda takomillashtirish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish
				E1.04.6	Fanlar bo'yicha o'quv-uslubiy hujjatlarning to'g'ri ishlab chiqilishi va amaliyotga joriy etilishini metodik jihatdan qo'llab-quvvatlash
		E2.6	Darsliklar, o'quv qo'llanmalar va metodik materiallarni tahlil qilish, tanlash va takomillashtirish	E2.01.6	Amaldagi darsliklar, o'quv qo'llanmalar va metodik materiallarni davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari va malaka talablari asosida tahlil qilish
				E2.02.6	O'quv adabiyotlarining mazmuni, tuzilmasi va metodik jihatdan ta'lim jarayoni talablariga muvofiqligini baholash

			bo'yicha takliflar berish	E2.03.6	Amaldagi darsliklar, o'quv qo'llanmalar va metodik materiallarni davlat ta'lim standartlari va fan dasturlari asosida o'rganish
				E2.04.6	O'quv adabiyotlarining mazmuni, tuzilishi va metodik yondashuvlarini tahlil qilish
		E3.6	Metodik ishlar natijalari bo'yicha tahliliy ma'lumotlar va hisobotlar tayyorlash	E3.01.6	OTMda metodik ishlar samaradorligini baholash va tahlil qilish
				E3.02.6	Fanlar kesimida metodik faoliyat holati va rivojlanish tendensiyalari
				E3.03.6	O'quv-uslubiy hujjatlarning ta'lim sifatiga ta'siri bo'yicha tahliliy hisobot
				E3.04.6	Metodik tavsiyalarni joriy etish natijalari va ularning samaradorligi
		E4.6	Darsliklar, o'quv qo'llanmalar va metodik materiallarni tahlil qilish, tanlash va takomillashtirish bo'yicha takliflar berish	E4.01.6	Amaldagi darsliklar, o'quv qo'llanmalar va metodik materiallarning mazmuni, tuzilishi va pedagogik samaradorligini tahlil qilish
				E4.02.6	O'quv adabiyotlari va metodik materiallarning davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari va malaka talablari bilan muvofiqligini baholash
				E4.03.6	Darsliklar va metodik qo'llanmalarni tanlash bo'yicha asoslangan metodik xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqish
				E4.04.6	Darsliklar va metodik materiallarni takomillashtirish yuzasidan mualliflar va tegishli tashkilotlarga tavsiyalar berish
		E5.6	Metodik ishlar natijalari bo'yicha tahliliy ma'lumotlar va hisobotlar tayyorlash	E5.01.6	O'quv-uslubiy va metodik ishlar jarayonida yig'ilgan ma'lumotlarni tizimlashtirish va umumlashtirish
				E5.02.6	O'quv jarayonining metodik samaradorligini baholash bo'yicha indikatorlar va mezonlar asosida tahlil qilish
				E5.03.6	Aniqlangan kamchiliklar va muvaffaqiyatli tajribalarni asoslab tahlil qilish
				E5.04.6	Tahliliy natijalar asosida metodik xulosalar va takliflar ishlab chiqish

		E6.8	Pedagogiklarga metodik yordam ko'rsatish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etishga ko'maklashish	E6.01.6	Pedagogiklarga o'quv jarayonini metodik jihatdan tashkil etish bo'yicha maslahatlar va tavsiyalar berish
				E6.02.6	Ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlar va innovatsion yondashuvlarni qo'llash bo'yicha ko'maklashish
				E6.03.6	Pedagogiklarga o'quv-uslubiy hujjatlar, dars rejasi va metodik materiallardan samarali foydalanish bo'yicha yo'riqnomalar taqdim etish
				E6.04.6	Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni joriy etishning samaradorligini monitoring qilish va aniqlangan kamchiliklar bo'yicha takliflar berish
		E7.8	O'quv jarayonini davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlariga muvofiq metodik jihatdan ta'minlash	E7.01.6	O'quv jarayonini davlat ta'lim standartlari, malaka talablari va tasdiqlangan o'quv dasturlariga muvofiq tashkil etilishini metodik jihatdan ta'minlash
				E7.02.6	O'quv rejalari, fan dasturlari va sillabuslarning davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini o'rganish va tahlil qilish
				E7.03.6	Ta'lim jarayonining mazmuni, shakli va usullarini me'yoriy talablarga mos holda takomillashtirish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish
				E7.04.6	Fanlar bo'yicha o'quv-uslubiy hujjatlarning to'g'ri ishlab chiqilishi va amaliyotga tatbiq etilishini metodik jihatdan qo'llab-quvvatlash
5	23510016 Ta'lim sifatini baholash va akkreditatsiya bo'yicha uslubchi	F1.6	Ta'lim sifatini baholash tizimini davlat ta'lim standartlari, milliy va xalqaro akkreditatsiya talablari asosida metodik jihatdan tashkil etish	F1.01.6	OTMni ichki attestatsiyadan o'tkazishni tashkil etish, natijalari bo'yicha ta'lim sifatiga salbiy ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, ma'lumotlarni bo'lim yoki boshqarma boshlig'iga taqdim etish
				F1.02.6	OTMning tarkibiy tuzilmalarida fakultet, kafedra, bo'lim, markaz, akademik litsey pedagog xodimlarning kasbiy malakasi holatini, shuningdek, oliy ta'limdan keyingi ta'lim hamda malaka oshirish va qayta tayyorlash yo'nalishlaridagi sifat darajasini aniqlash

					maqsadida ichki monitoringni o'tkazish, tahliliy ma'lumotlarni tayyorlash, aniqlanagan kamchilik va muammolarni bartaraf etish bo'yicha OTM rahbariyatiga takliflar kiritish
				F1.03.6	OTM professor-pedagogiklari tayanch ma'lumotlarining tegishli dars beradigan faniga mosligini tahlil qilish yoki ularning tegishli qayta tayyorlashdan o'tganligini yoki mos ixtisoslik bo'yicha ilmiy unvon, darajaga ega ekanligini o'rganish va xulosalarni OTM rektor(direktor)iga ma'lum qilish
				F1.04.6	OTMda talabalar amaliyotining ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarni inobatga olingan holda tashkil etilganligini va uning samarasini nazorat qilish
		F2.6	Aniqlangan kamchiliklar asosida ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan takliflar va chora-tadbirlar ishlab chiqish	F2.01.6	Attestatsiya, ta'lim sifatini o'rganish bilan bog'liq jarayonlarda OTMda aniqlangan kamchiliklar va nuqsonlarni o'z vaqtida bartaraf etilishi ustidan nazorat o'rnatish
				F2.02.6	Bo'lim xodimlarining kasbiy mahoratini oshirish, xalqaro loyihalar va OTM hisobidan rivojlangan xorijiy davlatlarning nufuzli o'quv va ilmiy markazlari tajribasini o'rganish va ularni ta'lim jarayoniga tadbiq etish
				F2.03.6	OTM reytingini xalqaro darajaga ko'tarishga qaratilgan chora-tadbirlarni oliy ta'lim muassasasi rahbariyati bilan birgalikda ishlab chiqish va uni ijrosini ta'minlashda faol ishtirok etish
				F2.04.6	Bo'limning lavozim vazifalari bo'yicha topshiriqlarni sifatli bajarish hamda zarurat bo'lganda kamchiliklar,

					muammolar tug'ilganda rahbariyatga o'rnatilgan tartibda taklif va tavsiyalar kiritish
				F2.05.6	Ta'lim sifatini nazorat qilish sohasida bo'limga yuklatilgan boshqa vazifalarni bajarish
		F3.6	Akkreditatsiya (milliy va xalqaro) jarayonlariga tayyorgarlik ko'rish, zarur hujjatlar va dalillar bazasini shakllantirishda ishtirok etish	F3.01.6	Oliy ma'lumotli, ilmiy darajaga yoki ta'lim sohasida muayyan tajribaga nazariy, tashkilotchilik va boshqaruv qobiliyati jihatidan ega bo'lishi
				F3.02.6	Ta'lim sohasiga oid qonun va qonunosti hujjatlarini, asosiy me'yoriy- huquqiy hujjatlarni bilishi va ularni amalda qo'llay olishi
				F3.03.6	Ta'lim muassasalaridagi pedagogik va ta'lim-tarbiya jarayonini bilishi, ta'lim sifatini baholash komponentlaridan xabardor bo'lishi
				F3.04.6	OTMning tarkibiy bo'linmalari faoliyati xususiyatlarini bilishi
		F4.6	Professor-pedagogiklar va xodimlarga ta'lim sifati, baholash mezonlari va akkreditatsiya talablari bo'yicha metodik maslahatlar berish	F4.01.6	Ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik usullarni qo'llash va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga oid bilimlardan xabardor bo'lishi
				F4.02.6	O'quv, ilmiy-tadqiqot va ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishdagi ishlarning mazmun-mohiyatini to'liq tushunishi, yangi avlod o'quv adabiyotlarini tayyorlash va ularga tegishli tashkilotlarning grifini olish tartibini bilishi
				F4.03.6	OTM professor-pedagogiklarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash tartibini bilishi
				F4.04.6	Ish faoliyatida zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni lozim darajada bilishi
		F5.6	Ta'lim sifati bo'yicha tahliliy	F5.01.6	Bo'limda me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan ish yuritish va ijro nazoratini ta'minlash

			ma'lumotlar, hisobotlar va xulosalar tayyorlash	F5.02.6	OTMning o'quv, ilmiy-uslubiy va ilmiy-tadqiqot ishlar rejalarining bajarilishini monitoring qilish
				F5.03.6	OTMning tarkibiy tuzilmalarida fakultet, kafedra, bo'lim, markaz, akademik litsey pedagog xodimlarning kasbiy malakasini, shuningdek, oliy ta'limdan keyingi ta'lim hamda malaka oshirish va qayta tayyorlash yo'nalishlarida sifat darajasini aniqlash maqsadida o'tkaziladigan ichki attestatsiya jarayonida ishtirok etish va hisobot tayyorlash
		F6.6	O'quv jarayoni, ta'lim dasturlari va o'quv-uslubiy ta'minotning sifat ko'rsatkichlarini ishlab chiqish va joriy etish	F6.01.6	Talabalar bilimini baholash jarayonini tahlil qilish asosida reyting ballarining xolisligini, shaffofligini va sifat darajasini baholash
				F6.02.6	OTMdagi ijtimoiy muhit, kadrlar tayyorlash va ta'lim sifatini o'rganish maqsadida doimiy ravishda talaba, ota-ona, professor-o'qituvchi va kadrlar iste'molchilari o'rtasida ijtimoiy so'rovlar o'tkazish va ularning natijalari bo'yicha tahliliy ma'lumotlarni tayyorlash
				F6.03.6	Jamoatchi ekspertlar bazasini shakllantirish va ular bilan qo'yilgan vazifalar doirasida seminar mashg'ulotlarini muntazam ravishda o'tkazib borish
				F6.04.6	Respublikada va xorijiy davlatlardagi ta'lim sifatini nazorat qilishga oid yangiliklarni doimiy o'rganib borish va ularni ta'lim jarayoniga tadbiq etish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish
		F7.6	Ta'lim sifati va akkreditatsiya yo'nalishidagi ilg'or tajribalarni o'rganish,	F7.01.6	Rahbariyatning topshirig'iga binoan bo'lim boshlig'i ruxsati bilan OTMlar reytingini aniqlashga va baholashga oid ma'lumotlarni to'plashda, o'tkaziladigan attestatsiya va ta'lim sifatini o'rganish bilan bog'liq jarayonlarda ishtirok etish

6	Kechki (smenali) ta'lim uchun o'quv-metodik ishlar bo'yicha uslubchi		umumlashtirish va amaliyotga joriy etish	F7.02.6	Pedagogik va ta'lim-tarbiya jarayonini bilishi, ta'lim sifatini baholash komponentlaridan xabardor bo'lishi
				F7.03.6	O'quv, ilmiy-tadqiqot va ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishdagi ishlarning mazmun- mohiyatini tushunishi, yangi avlod o'quv adabiyotlarini tayyorlashga qo'yilgan talablarni bilishi
				F7.04.6	Ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik usullarni qo'llash va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga oid bilimlardan xabardor bo'lishi
		G1.6	O'quv rejalari, fan dasturlari va taqvim-mavzu rejalarning amaldagi me'yoriy hujjatlarga muvofiqligini tahlil qilish.	G1.01.6	O'quv rejalari, fan dasturlari va taqvim-mavzu rejalarning amaldagi normativ hujjatlarga muvofiqligini o'rganish.
				G1.02.6	O'quv-uslubiy hujjatlarni tayyorlash, rasmiylashtirish va yuritishda ishtirok etish, Fanlar bo'yicha o'quv-uslubiy majmualarni shakllantirish va yangilashni muvofiqlashtirish.
				G1.03.6	O'quv mashg'ulotlari sifati, davomat va o'zlashtirish ko'rsatkichlarini monitoring qilish, Monitoring natijalari asosida tahliliy ma'lumot va hisobotlar tayyorlash.
				G1.04.6	Elektron ta'lim platformalari va raqamli o'quv resurslaridan foydalanishni metodik jihatdan qo'llab-quvvatlash.
		G2.6	Fanlar bo'yicha o'quv-uslubiy majmualarni shakllantirish va yangilashni tashkil etish.	G2.01.6	O'quv-metodik hujjatlar va ma'lumotlar bazasini yuritish, Ta'lim sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini ta'minlashda ishtirok etish.
				G2.02.6	Pedagogik jamoa va tarkibiy bo'linmalar bilan hamkorlikda metodik ishlarni amalga oshirish, O'quv-metodik faoliyat yuzasidan belgilangan tartibda hisobotlarni tayyorlash va taqdim etish.
				G2.03.6	Ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish va ommalashtirish, Ta'lim

					jarayonida zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishga ko'maklashish.
				G2.04.6	Ochiq darslar, seminarlar, metodik kengashlar va treninglarni tashkil etishda qatnashish, Mehnat muhofazasi, ichki tartib-qoidalar va axborot xavfsizligi talablariga rioya qilish.
		G3.6	Kechki talim uchun o'quv-metodik majmualarni ishlab chiqish, yangilash va takomillashtirishni tashkil etish.	G3.01.6	O'quv rejalari, fan dasturlari va davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'quv-metodik majmualar tuzilmasini shakllantirish. Kechki ta'lim xususiyatlarini inobatga olgan holda o'quv materiallarini moslashtirish va optimallashtirish.
					O'quv-metodik majmualar darslik, qo'llanma, yo'riqnoma, elektron resurslarni ishlab chiqishda metodik rahbarlik qilish.
					Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va raqamli resurslarni o'quv-metodik majmualarga integratsiya qilishni tashkil etish.
					Pedagoglardan va ta'lim oluvchilardan olingan fikr-mulohazalarni tahlil qilish va majmualarni yangilashda hisobga olish.
		G4.6	Pedagoglarga kechki ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodlardan foydalanish bo'yicha metodik yordam ko'rsatish.	G4.01.6	Kechki ta'lim jarayonida qo'llaniladigan zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodlarni o'rganish va tizimlashtirish.
				G4.02.6	Pedagoglarga interaktiv, kompetensiyaviy va innovatsion o'qitish metodlarini qo'llash bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish.
				G4.03.6	Kechki ta'lim xususiyatlarini inobatga olgan holda darslarni samarali tashkil etish bo'yicha yo'riqnomalar tayyorlash.

				G4.04.6	Pedagoglar uchun seminar, trening va metodik maslahatlar tashkil etish va o'tkazish.
		G5.6	Talim jarayonida ilgor tajribalarni urganish, umumlashtirish va amaliyotga joriy etishni tashkil etish.	G5.01.6	Ta'lim jarayoniga samarali pedagogik texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarni joriy etishni muvofiqlashtirish.
				G5.02.6	Pedagog xodimlarning innovatsion faoliyati va ilg'or ish usullarini umumlashtirish bo'yicha metodik ishlarni olib borish.
				G5.03.6	Pedagoglarning ilg'or tajribalarni qo'llash bo'yicha kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga ko'maklashish.
				G5.04.6	Ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash.
		G6.6	Kechki talim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishni metodik qo'llab-quvvatlash.	G6.01.6	Pedagog xodimlarga raqamli ta'lim resurslari va AKT vositalaridan foydalanish bo'yicha metodik yordam ko'rsatish.
				G6.02.6	Kechki ta'lim uchun elektron o'quv-uslubiy materiallar va raqamli kontentlarni yaratish hamda joriy etishga ko'maklashish.
				G6.03.6	Ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini monitoring qilish va tahlil etish.
				G6.04.6	Masofaviy va aralash ta'lim texnologiyalarini qo'llash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.
		G7.6	Talim oluvchilarning o'zlashtirish	G7.01.6	Kompetensiyaga asoslangan baholash mezonlari va indikatorlarini ishlab chiqishda metodik ko'mak ko'rsatish.

7	Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish bo'yicha metodist	H1.6	natijalarini tahlil qilish va kompetensiyalarini baholash jarayonini metodik qo'llab-quvvatlash.	G7.02.6	O'zlashtirish ko'rsatkichlari bo'yicha tahliliy ma'lumotlar, hisobotlar va metodik xulosalarni tayyorlash.
				G7.03.6	Ta'lim natijalarini aniqlash uchun zamonaviy baholash usullari va vositalarini tavsiya etish hamda amaliyotga joriy qilish.
				G7.04.6	Kompetensiyalarni baholash jarayonida ilg'or milliy va xalqaro tajribalarni o'rganish hamda amaliyotga tatbiq etishga ko'maklashish.
	Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish bo'yicha metodist	H1.6	O'quv-metodik materiallarni ishlab chiqish va metodik qo'llab-quvvatlash	H1.01.6	Xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha o'quv-metodik materiallarni ishlab chiqishda ishtirok etish.
				H1.02.6	Metodik tavsiyalar, qo'llanmalar va didaktik materiallarni tayyorlash hamda yangilash.
				H1.03.6	Ta'lim jarayonida foydalaniladigan metodik materiallarning normativ talablarga muvofiqligini nazorat qilish.
				H1.04.6	Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion metodlarni ta'lim jarayoniga joriy etishga ko'maklashish.
		H2.6	Xorijiy tillarni o'qitish sifati monitoringini olib borish, Pedagoglarning kasbiy rivojlanishini metodik qo'llab-quvvatlash	H2.01.6	O'quv-uslubiy majmualarni shakllantirish va takomillashtirishda qatnashish.
				H2.02.6	O'quv mashg'ulotlari, metodik ta'minot va ta'lim natijalarini tahlil etish, Ta'lim oluvchilarning til kompetensiyalarini baholash natijalarini o'rganish.
				H2.03.6	O'quv-metodik materiallarning samaradorligini o'rganish va baholash, Pedagoglarning dars mashg'ulotlarini metodik jihatdan tahlil qilishda qatnashish.
				H2.04.6	Seminarlar, treninglar, mahorat darslari va metodik uchrashuvlarni tashkil etish, Pedagoglarga zamonaviy

					xorijiy til o'qitish metodlari bo'yicha metodik yordam ko'rsatish.
		H3.6	Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishga qaratilgan strategik va yillik ish rejaralarini ishlab chiqish va amalga oshirishni muvofiqlashtirish.	H3.01.6	Xorijiy tillarni ommalashtirishga qaratilgan yillik ish rejaralarini ishlab chiqish va tasdiqlash jarayonini tashkil etish.
				H3.02.6	Belgilangan strategik va yillik rejalar ijrosi yuzasidan monitoring va tahlil ishlarini olib borish.
				H3.03.6	Zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini xorijiy tillarni o'qitish jarayoniga joriy etishni muvofiqlashtirish.
				H3.04.6	Amalga oshirilgan tadbirlar natijadorligi bo'yicha tahliliy ma'lumotlar va hisobotlarni tayyorlash hamda takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish.
		H4.6	Pedagoglarga xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha ilg'or mahalliy va xorijiy tajribalarni o'rganish va amaliyotga tatbiq etishda metodik yordam ko'rsatish.	H4.01.6	Xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha ilg'or mahalliy va xorijiy tajribalarni muntazam o'rganish, tahlil qilish va umumlashtirish.
				H4.02.6	Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, innovatsion metodlar va xalqaro tajribalarni ta'lim jarayoniga joriy etish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish.
				H4.03.6	Pedagoglar uchun xorijiy tillarni o'qitish metodikasiga oid seminar, trening, mahorat darslari va metodik uchrashuvlarni tashkil etish hamda o'tkazish.
				H4.04.6	Xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha o'quv-metodik materiallar, qo'llanmalar va tavsiyalar tayyorlash hamda ulardan foydalanishni muvofiqlashtirish.
		H5.6	Xorijiy tillarni ommalashtirish bo'yicha hamkor tashkilotlar bilan aloqalarni yo'lga qo'yish va	H5.01.6	Hamkor tashkilotlar bilan birgalikda pedagoglar va o'quvchilar uchun trening, mahorat darslari va malaka oshirish tadbirlarini tashkil etish.
				H5.02.6	Xorijiy tillarni o'rganishga qiziqishni oshirish maqsadida innovatsion loyihalar va ijtimoiy tashabbuslarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish.

			hamkorlikni rivojlantirish.	H5.03.6	Xorijiy tillarni ommalashtirish bo'yicha axborot-resurs materiallari, targ'ibot vositalari va metodik tavsiyalar ishlab chiqishda hamkorlik qilish.
				H5.04.6	Xorijiy tillarni ommalashtirish bo'yicha ilg'or tashabbus va tajribalarni ommalashtirish hamda ularni ta'lim amaliyotiga tatbiq etishga ko'maklashish.
		H6.6	Pedagoglarga xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha ilg'or mahalliy va xorijiy tajribalarni o'rganish va amaliyotga tatbiq etishda metodik yordam ko'rsatish.	H6.01.6	Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion metodlarni ta'lim jarayoniga joriy etish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish.
				H6.02.6	Pedagoglarga xorijiy tillarni o'qitish metodikasi yuzasidan konsultativ va amaliy yordam ko'rsatish.
				H6.03.6	Pedagoglarning ilg'or tajribalarni amaliyotga tatbiq etish faoliyatini monitoring qilish va tahliliy xulosalar tayyorlash.
				H6.04.6	Ta'lim muassasalarida xorijiy tillarni o'qitish amaliyotida uchrayotgan muammolarni aniqlash
		H7.6	Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion metodlarni xorijiy tillarni o'qitish jarayoniga joriy etishni metodik qo'llab-quvvatlash.	H7.01.6	Interfaol, kommunikativ va kompetensiyaviy yondashuvlarga asoslangan o'qitish metodlarini amaliyotga tatbiq etish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish.
				H7.02.6	Pedagoglarga zamonaviy texnologiyalarni tanlash va ulardan samarali foydalanish bo'yicha maslahat va amaliy yordam ko'rsatish.
				H7.03.6	Pedagoglar uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash bo'yicha seminar, trening va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish.
				H7.04.6	Xorijiy tillarni o'qitish jarayonida innovatsion yondashuvlarning samaradorligini oshirish bo'yicha doimiy monitoring va metodik tahlil olib borish.
8	Malaka oshirish va qayta	I1.6	O'quv rejalari, dasturlar va o'quv-metodik	I1.01.6	O'quv rejalari va dasturlarni amaldagi davlat ta'lim standartlari va normativ hujjatlarga muvofiqligini tahlil qilish.

tayyorlash instituti professional- mutaxassisi			materiallarni ishlab chiqish, yangilash hamda amaliyotga joriy etishda ishtirok etish.	I1.02.6	O'quv-metodik materiallar qo'llanma, yo'riqnoma, tavsiyalarni tayyorlash va takomillashtirishda qatnashish.
				I1.03.6	O'quv jarayonida qo'llaniladigan materiallarning sifatini tahlil qilish va takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.
				I1.04.6	Ta'lim jarayonida foydalaniladigan materiallarning uzluksiz yangilanib borishini ta'minlashda ishtirok etish.
	I2.6	Ta'lim jarayonida normativ-huquqiy hujjatlar talablariga rioya etilishini ta'minlash.		I2.01.6	Ta'lim faoliyatiga oid yangi qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarni pedagogik jamoaga yetkazish va tushuntirish.
				I2.02.6	Ta'lim jarayonida qonunchilikdagi o'zgarishlarni monitoring qilish va amaliyotga joriy etish bo'yicha takliflar berish.
				I2.03.6	O'quv-metodik hujjatlar va materiallarning normativ talablariga muvofiqligini tahlil qilishda ishtirok etish,
				I2.04.6	Ta'lim jarayonida qonunchilikdagi o'zgarishlarni monitoring qilish va amaliyotga joriy etish bo'yicha takliflar berish.
	I3.6	Malaka oshirish va qayta tayyorlash dasturlarini ishlab chiqish, yangilash va amaldagi me'yoriy hujjatlarga muvofiqligini ta'minlash.		I3.01.6	<i>Malaka oshirish va qayta tayyorlash o'quv reja va dasturlarini muntazam ravishda yangilab borish.</i>
				I3.02.6	Malaka oshirish jarayonida innovatsion metodlar va raqamli texnologiyalarni joriy etishga metodik yordam ko'rsatish.
				I3.03.6	Pedagoglarning kasbiy ehtiyojlari va so'rovlariga asoslangan holda yangi modul va kurslarni ishlab chiqish.

				I3.04.6	Malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish bo'yicha tahliliy ma'lumotlar va takliflar tayyorlash.
		I4.6	Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarni malaka oshirish jarayoniga joriy etishga ko'maklashish.	I4.01.6	Malaka oshirish kurslari mazmuniga interfaol, kommunikativ va kompetensiyaviy yondashuvlarni integratsiya qilish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish.
				I4.02.6	Zamonaviy texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan o'quv materiallari va baholash vositalarini joriy etishda metodik ko'maklashish.
				I4.03.6	Pedagoglarning innovatsion metodlardan foydalanish bo'yicha kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga metodik yordam ko'rsatish.
				I4.04.6	Innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish maqsadida metodik materiallar bazasini shakllantirish va doimiy yangilab borish.
		I5.6	O'quv-metodik majmualar va elektron resurslarni yaratish, yangilash va ulardan samarali foydalanishni ta'minlash.	I5.01.6	O'quv-metodik majmualarning mazmunini CEFR va xalqaro standartlarga moslashtirish bo'yicha metodik ishlarni amalga oshirish.
				I5.02.6	O'quv-metodik majmualarning sifatini tahlil qilish va ularni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.
				I5.03.6	Pedagoglar va o'quvchilar uchun interfaol va multimediya asosidagi o'quv materiallar bazasini shakllantirish.
				I5.04.6	Ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan elektron resurslarni keng joriy etish va ommalashtirishga metodik yordam ko'rsatish.

		I6.6	Seminar, trening, mahorat darslari va ilmiy-metodik tadbirlarni tashkil etishda ishtirok etish.	I6.01.6	Ilmiy-metodik tadbirlar doirasida xorijiy tillarni o'qitishning zamonaviy metodlari va texnologiyalarini targ'ib qilish.
				I6.02.6	Seminar va treninglarda ishtirokchilarning faolligini oshirishga qaratilgan interfaol usullarni qo'llashga ko'maklashish.
				I6.03.6	Ilmiy-metodik tadbirlar orqali ilg'or tajribalarni ommalashtirish va ta'lim amaliyotiga joriy etishga ko'maklashish.
				I6.04.6	Tadbirlar samaradorligini oshirish maqsadida innovatsion yondashuvlar va raqamli texnologiyalardan foydalanishni yo'lga qo'yish.
		I7.6	Malaka oshirish va qayta tayyorlash jarayonida ta'lim oluvchilarning natijalarini baholash va tahlil qilishda ishtirok etish.	I7.01.6	Ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini aniqlash uchun oraliq va yakuniy baholash jarayonlarini tashkil etishda ishtirok etish.
				I7.02.6	Ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasini tahlil qilish va natijalar bo'yicha xulosalar tayyorlashda ishtirok etish.
				I7.03.6	Ta'lim oluvchilarning natijalarini monitoring qilish va dinamikasini tahlil qilish jarayonida ishtirok etish.
				I7.04.6	Baholash tizimini takomillashtirish maqsadida ilg'or mahalliy va xorijiy tajribalarni o'rganish va amaliyotga tatbiq etish bo'yicha takliflar berish.
9	Ma'naviyat, jismoniy tarbiya va sport bo'yicha uslubchi-yo'riqchi	J1.6	Ma'naviy tarbiya, milliy qadriyatlar va sog'lom turmush tarzini targ'ib etishga qaratilgan	J1.01.6	Ma'naviy tarbiya, milliy qadriyatlar va sog'lom turmush tarzini targ'ib etuvchi tadbirlarni rejalashtirish va tashkillashtirish.
				J1.02.6	Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar (uchrashuvlar, davra suhbatlari, ma'ruzalar, festival va aksiyalar)ni tashkil etish va o'tkazish.

			tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish.	J1.03.6	Tadbirlarni o'tkazish jarayonida xavfsizlik va tartib-intizom talablariga rioya etilishini nazorat qilish.
				J1.04.6	Tadbirlar samaradorligini baholash va tahliliy ma'lumotlar tayyorlash.
		J2.6	Ta'lim muassasasida ma'naviy-ma'rifiy ishlar, jismoniy tarbiya va sport faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish va muvofiqlashtirish.	J2.01.6	Ta'lim muassasasida ma'naviy-ma'rifiy ishlar, jismoniy tarbiya va sport faoliyati bo'yicha yillik va choraklik ish rejalarni ishlab chiqish.
				J2.02.6	Ma'naviy tarbiya, sog'lom turmush tarzi va jismoniy faollikni oshirishga qaratilgan tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash.
				J2.03.6	O'tkazilgan tadbirlar bo'yicha hisobotlar va tahliliy ma'lumotlar tayyorlash, Hamkor tashkilotlar bilan birgalikda tarbiyaviy va sport loyihalarini amalga oshirish.
				J2.04.6	Ilg'or tajribalarni o'rganish, umumlashtirish va amaliyotga joriy etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.
		J3.6	Ma'naviyat, jismoniy tarbiya va sport yo'nalishida yillik, choraklik va joriy ish rejalarni ishlab chiqish va amalga oshirilishini nazorat qilish.	J3.01.6	Ma'naviyat, jismoniy tarbiya va sport yo'nalishida yillik, choraklik hamda joriy ish rejalarni ishlab chiqish va tasdiqlashga tayyorlash.
				J3.02.6	Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, sport musobaqalari va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni rejalashtirish.
				J3.03.6	Ma'naviyat va sport yo'nalishidagi ilg'or tajribalarni o'rganish va amaliyotga joriy etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.
				J3.04.6	Reja ijrosining monitoring natijalarini umumlashtirish va rahbariyatga tahliliy ma'lumotlar taqdim etish.
		J4.6	Pedagogiklar va murabbiylarga ma'naviy-ma'rifiy	J4.01.6	Pedagoglar va murabbiylarga ma'naviy-ma'rifiy ishlar hamda sport faoliyatini tashkil etish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

			ishlar hamda sport faoliyatini tashkil etish bo'yicha metodik yordam ko'rsatish.	J4.02.6	Ilg'or mahalliy va xorijiy tajribalar asosida ma'naviy-ma'rifiy va sport faoliyatini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.
				J4.03.6	Pedagog va murabbiylar uchun metodik qo'llanmalar, yo'riqnomalar va axborot materiallarini tayyorlashda ishtirok etish.
				J4.04.6	Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va sport faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tahliliy ma'lumotlar va takliflar ishlab chiqish.
		J5.6	Ta'lim muassasalarida sog'lom muhit, intizom va xavfsizlik talablariga rioya etilishini metodik jihatdan ta'minlash.	J5.01.6	Ta'lim muassasalarida sog'lom muhitni ta'minlashga qaratilgan profilaktik tadbirlar va targ'ibot ishlarini tashkil etish bo'yicha tavsiyalar berish.
				J5.02.6	Talabalar o'rtasida huquqbuzarlik va salbiy holatlarning oldini olishga qaratilgan profilaktik ishlarni metodik jihatdan qo'llab-quvvatlash.
				J5.03.6	Ta'lim muassasalarida sog'lom muhitni baholash mezonlarini ishlab chiqish va ularni qo'llashga metodik yordam ko'rsatish.
				J5.04.6	Sog'lom muhit, intizom va xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan tahliliy ma'lumotlar va takliflar tayyorlash.
Kasbning nomi:	Oliy ta'lim tashkilotlarini o'quv-uslubiy va metodik ta'minlash bo'yicha professional-mutaxassis
Mashg'ulot nomining kodi:	23510008
TMR bo'yicha malaka darajasi:	6
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar	Tavsiya etilmaydi
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Oliy ta'lim tashkilotlarini o'quv-uslubiy va metodik ta'minlash bo'yicha professional-mutaxassis uchun amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yiladigan talablar quyidagicha ifodalanadi. Nomzod kamida 3-5 yil pedagogik yoki o'quv-uslubiy faoliyat bo'yicha ish tajribasiga ega bo'lishi lozim. Oliy ta'lim tizimida ishlaganlik, ta'lim jarayonini tashkil etish, boshqarish yoki metodik jihatdan qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq lavozimlarda faoliyat yuritganlik ustunlik hisoblanadi. Nomzod o'quv-uslubiy faoliyat doirasida o'quv rejalari, fan dasturlari (syllabus), ishchi o'quv dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etgan bo'lishi, darsliklar, o'quv qo'llanmalar va metodik ko'rsatmalar tayyorlash yoki tahrirlash tajribasiga ega bo'lishi kerak. Shuningdek, davlat ta'lim standartlari va malaka talablariga muvofiq o'quv materiallarini ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lishi talab etiladi.
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar	Professional-mutaxassis quyidagi kasbiy layoqatlarga ega bo'lishi lozim: oliy ta'lim ta'lim dasturlari, malaka talablari va o'quv rejalari asosida o'quv-uslubiy materiallarni ishlab chiqish va takomillashtirish; fanlar bo'yicha o'quv-uslubiy majmualar, sillabuslar, metodik qo'llanmalar va baholash vositalarini ishlab chiqish jarayonini muvofiqlashtirish; o'quv jarayonini modul asosida tashkil etish va texnologik xaritalashtirishni amalga oshirish; ta'lim jarayonida interaktiv, innovatsion, masofaviy va gibridd o'qitish metodlarini joriy etish bo'yicha metodik ko'mak ko'rsatish; o'quv-uslubiy ishlar holatini tahlil qilish, monitoring qilish va xulosalar tayyorlash; pedagog kadrlarning metodik salohiyatini oshirishga qaratilgan seminar, trening va maslahatlarni tashkil etish; o'quv-uslubiy hujjatlarni qog'oz va elektron shaklda yuritish hamda ularning qonunchilikka muvofiqligini ta'minlash. Professional-mutaxassis quyidagi shaxsiy kompetensiyalarga ega bo'lishi lozim: mas'uliyatlilik - yuklatilgan vazifalarni belgilangan muddatlarda va sifatli bajarish;

	analitik va tizimli fikrlash -metodik materiallar va ta'lim jarayonini chuqur tahlil qilish; muloqot va hamkorlik kompetensiyasi- professor-o'qituvchilar, rahbar xodimlar va boshqa mutaxassislar bilan samarali muloqot olib borish; tashabbuskorlik va innovatsionlik -ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan yangi metodik yechimlarni taklif etish; o'zini rivojlantirishga intilish -kasbiy bilim va metodik kompetensiyalarni muntazam yangilab borish; stressga chidamlilik -yuqori yuklama va mas'uliyat sharoitida samarali ishlash.	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	bakalavriat o'rta maxsus professional ta'lim va amaliy tajriba	
Informal ta'lim bilan bog'liqligi:	-	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:		
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
Kodi va nomi	Mehnat funksiyalarining tavsifi	
	Mehnat vazifalari	
D1.6-Oliy ta'lim tashkilotlarida o'quv-uslubiy va metodik ta'minotni davlat ta'lim standartlari, malaka talablari va normativ-huquqiy hujjatlar asosida tashkil etish, o'quv rejalari, fan dasturlari, sillabuslar, o'quv-uslubiy majmualar va metodik qo'llanmalarni ishlab chiqish, ekspertizadan o'tkazish va takomillashtirishda ishtirok etish	D1.01.6- Oliy ta'lim tashkilotlarida o'quv-uslubiy va metodik ta'minotni davlat ta'lim standartlari, malaka talablari hamda amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida tashkil etish va muvofiqlashtirish	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1.Davlat ta'lim standartlari va malaka talablari asosida o'quv-uslubiy va metodik ta'minotni tashkil etish.
		2.O'quv reja, fan dasturlari va o'quv-uslubiy majmualarning amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiqligini ta'minlash.
		3.Oliy ta'lim tashkilotida o'quv-uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish va yangilash jarayonlarini muvofiqlashtirish.
		4.Kafedralar va boshqa tarkibiy bo'linmalar faoliyatini o'quv-uslubiy jihatdan muvofiqlashtirib borish.
		5.Metodik materiallar, o'quv qo'llanmalar va elektron ta'lim resurslarini tayyorlashni tashkil etish.
		6.O'quv-uslubiy ta'minot sifatini monitoring qilish va tahlil etish.
		7.Ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishni muvofiqlashtirish.
		8.O'qituvchilarning metodik faoliyatini rivojlantirish va ilg'or tajribalarni ommalashtirish.

		9. Normativ-huquqiy hujjatlardagi o'zgarishlar asosida o'quv-uslubiy hujjatlarga tegishli tuzatishlar kiritish.
		10. Ta'lim sifati va natijadorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish.
		Ko'nikmalar:
		Davlat ta'lim standartlari va malaka talablari asosida o'quv-uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish va tahrirlash
		O'quv rejalar, fan dasturlari va o'quv-uslubiy majmualarni muvofiqlashtirish
		Normativ-huquqiy hujjatlar talablarini ta'lim jarayoniga tatbiq etish
		Kafedralar va tarkibiy bo'linmalar bilan o'quv-uslubiy masalalar bo'yicha hamkorlik qilish
		O'quv-uslubiy ta'minot sifatini monitoring qilish va tahlil etish
		Metodik materiallar va elektron ta'lim resurslarini tayyorlashni tashkil etish
		Zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish
		O'qituvchilarning metodik faoliyatini muvofiqlashtirish va qo'llab-quvvatlash
		Ta'lim sifati va natijadorligini oshirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqish
		Bilimlar:
		Davlat ta'lim standartlari va malaka talablarining mazmuni va qo'llanish tartibi
		Oliy ta'limda o'quv-uslubiy va metodik ta'minotni tashkil etish asoslari
		Ta'lim sohasiga oid amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar
		O'quv rejalar, fan dasturlari va o'quv-uslubiy majmualarni ishlab chiqish talablari
		Metodik qo'llanmalar, o'quv adabiyotlari va elektron ta'lim resurslariga qo'yiladigan talablar
		Ta'lim sifati monitoringi va baholash tizimi
		Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion ta'lim usullari
		Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim jarayonida qo'llanilishi
		Mehnat harakatlari:
		1. Bakalavriat va magistratura ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv rejalarini ishlab chiqish jarayonida ishtirok etish.
		2. Fan dasturlari va sillabuslarni tayyorlashda tegishli kafedralar bilan hamkorlik qilish.

QCL7527	D1.02.6-Bakalavriat va magistratura ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv rejalari, fan dasturlari va sillabuslarni ishlab chiqish jarayonida ishtirok etish hamda ularning me'yoriy talablarga muvofiqligini ta'minlash	3.O'quv reja, fan dasturlari va sillabuslarni davlat ta'lim standartlari hamda malaka talablariga muvofiqligini ta'minlash.
		4. O'quv-uslubiy hujjatlarni amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar talablari asosida ishlab chiqish va tahrirlash.
		5. Ta'lim mazmunining izchilligi va uzviyligini ta'minlashda ishtirok etish.
		6. O'quv rejalari va fan dasturlariga kiritilayotgan o'zgarishlarni kelishish va muvofiqlashtirish.
		7. Sillabuslarda o'qitish natijalari, baholash mezonlari va o'quv yuklamalarining to'g'ri aks ettirilishini nazorat qilish.
		8. O'quv-uslubiy hujjatlarni ekspertizadan o'tkazish va tegishli xulosalar tayyorlash.
		9. Ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy ta'minot sifatini tahlil qilish.
		10. Ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqish.
		Ko'nikmalar:
		Bakalavriat va magistratura ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv rejalari tahlil qilish va ishlab chiqishda ishtirok etish
		Fan dasturlari va sillabuslarni tayyorlash, tahrirlash hamda takomillashtirish
		Davlat ta'lim standartlari va malaka talablariga muvofiqlikni ta'minlash
		O'quv-uslubiy hujjatlarni amaldagi me'yoriy talablar asosida rasmiylashtirish
		Kafedralar va mas'ul bo'linmalar bilan samarali hamkorlik qilish
		Ta'lim mazmunining uzviyligi va izchilligini ta'minlash
		Sillabuslarda o'qitish natijalari va baholash mezonlarini to'g'ri shakllantirish
		O'quv yuklamalari va kreditlar taqsimotini tahlil qilish
		O'quv-uslubiy hujjatlarni ekspertizadan o'tkazish
		Bilimlar:
		Bakalavriat va magistratura ta'lim yo'nalishlari bo'yicha davlat ta'lim standartlari
		Malaka talablari va ularning o'quv rejalarga tatbiq etilishi
		O'quv rejalari ishlab chiqish va tasdiqlash tartibi
		Fan dasturlari va sillabuslarni tayyorlashga qo'yiladigan me'yoriy talablar

		Kredit-modul tizimi va o'quv yuklamalarini hisoblash qoidalari
		O'qitish natijalari (learning outcomes)ni shakllantirish tamoyillari
		Baholash mezonlari va nazorat shakllarini belgilash asoslari
		Ta'lim mazmunining uzviyligi va izchilligini ta'minlash usullari
D1.03.6- O'quv-uslubiy majmualar, metodik qo'llanmalar va boshqa o'quv adabiyotlarini tayyorlash, ekspertizadan o'tkazish va takomillashtirish bo'yicha metodik yordam ko'rsatish		Mehnat harakatlari:
		1. O'quv-uslubiy majmualar, metodik qo'llanmalar va boshqa o'quv adabiyotlarini tayyorlash jarayonida ishtirok etish.
		2. O'quv adabiyotlarini davlat ta'lim standartlari va malaka talablariga muvofiq ishlab chiqishga metodik yordam ko'rsatish.
		3.Tayyorlangan o'quv-uslubiy materiallarni ekspertizadan o'tkazish va xulosalar tayyorlash.
		4.O'quv adabiyotlarining mazmuni, tuzilishi va sifatini baholash.
		5.Ekspertiza natijalari asosida o'quv adabiyotlarini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berish.
		6. Pedagogiklar va mualliflarga metodik maslahatlar berish.
		7.O'quv-uslubiy materiallarda zamonaviy pedagogik va innovatsion yondashuvlarni qo'llashni qo'llab-quvvatlash.
		8.Elektron o'quv resurslari va raqamli materiallar tayyorlashga metodik ko'mak berish.
		Ko'nikmalar:
		O'quv-uslubiy majmualar va metodik qo'llanmalarni tayyorlashda ishtirok etish
		O'quv adabiyotlarini davlat ta'lim standartlari va malaka talablariga muvofiq tahlil qilish
		O'quv-uslubiy materiallarni ekspertizadan o'tkazish va baholash
		Ekspertiza natijalari asosida takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berish
		Pedagogiklar va mualliflarga metodik maslahatlar berish
		Metodik qo'llanmalar mazmuni va tuzilishini takomillashtirish
		Zamonaviy pedagogik va innovatsion yondashuvlarni o'quv materiallariga joriy etish
		Elektron o'quv resurslari va raqamli ta'lim materiallari bilan ishlash

		O'quv-uslubiy ta'minot sifatini tahlil qilish
		Bilimlar: O'quv-uslubiy majmualar, metodik qo'llanmalar va o'quv adabiyotlarini ishlab chiqishga qo'yiladigan talablar Davlat ta'lim standartlari va malaka talablarining o'quv adabiyotlariga tatbiqi O'quv adabiyotlarini ekspertizadan o'tkazish tartibi va mezonlari Ta'lim sohasiga oid amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar Metodik ta'minotni tashkil etish va muvofiqlashtirish asoslari Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion ta'lim usullari O'quv materiallarini tuzish, yangilash va takomillashtirish usullari Elektron va raqamli o'quv resurslarini yaratish asoslari Ta'lim sifatini baholash va monitoring qilish tamoyillari Ilg'or milliy va xorijiy pedagogik tajribalar O'quv-uslubiy majmualar, metodik qo'llanmalar va o'quv adabiyotlarini ishlab chiqishga qo'yiladigan talablar
	D1.04.6- O'quv-uslubiy hujjatlarning mazmuni, tuzilmasi va kompetensiyaviy yondashuv asosida ishlab chiqilishini nazorat qilish	Mehnat harakatlari: 1.O'quv-uslubiy hujjatlarning mazmuni va tuzilmasini belgilangan talablar asosida tekshirish. 2.O'quv-uslubiy hujjatlarni kompetensiyaviy yondashuv asosida ishlab chiqilishini nazorat qilish. 3.Davlat ta'lim standartlari va malaka talablariga muvofiqlikni ta'minlash. 4.O'quv rejalar, fan dasturlari va sillabuslarda o'qitish natijalarining to'g'ri aks ettirilishini baholash. 5.Kompetensiyalar, bilim, ko'nikma va malakalarning izchil shakllantirilishini nazorat qilish. 6.O'quv-uslubiy hujjatlarning me'yoriy-huquqiy hujjatlar talablariga mosligini tekshirish. 7.Aniqlangan kamchiliklar bo'yicha xulosalar tayyorlash va takliflar berish. 8.Kafedralar va mualliflar bilan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan hamkorlik qilish. 9.O'quv-uslubiy hujjatlarni yangilash va takomillashtirish jarayonlarini muvofiqlashtirish. Ko'nikmalar: O'quv-uslubiy hujjatlarning mazmuni va tuzilmasini tahlil qilish

		Kompetensiyaviy yondashuv asosida ishlab chiqilgan hujjatlarni baholash
		Davlat ta'lim standartlari va malaka talablariga muvofiqlikni tekshirish
		O'quv reja, fan dasturlari va sillabuslarda o'qitish natijalarini tahlil qilish
		Kompetensiyalar, bilim, ko'nikma va malakalarning uzviyligini ta'minlash
		O'quv-uslubiy hujjatlarda aniqlangan kamchiliklarni tizimlashtirish
		Mualliflar va kafedralar bilan konstruktiv muloqot olib borish
		Takomillashtirish bo'yicha aniq xulosa va tavsiyalar tayyorlash
		O'quv-uslubiy hujjatlarni yangilash jarayonlarini muvofiqlashtirish ko'nikmasi
		Ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan tahliliy fikrlash
		Bilimlar:
		Kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslari va uni ta'lim jarayonida qo'llash tamoyillari
		Davlat ta'lim standartlari va malaka talablarining mazmuni
		O'quv-uslubiy hujjatlarni o'quv reja, fan dasturi, sillabus ishlab chiqish talablari
		O'qitish natijalarini shakllantirish qoidalari
		Kompetensiyalar, bilim, ko'nikma va malakalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik
		O'quv-uslubiy hujjatlar tuzilmasi va mazmuniga qo'yiladigan me'yoriy talablar
		Ta'lim sohasiga oid amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar
		Ta'lim sifati monitoringi va baholash mezonlari
		O'quv-uslubiy ta'minotni yangilash va takomillashtirish usullari
		Ilg'or milliy va xalqaro ta'lim tajribalari
	D1.05.6- Fanlar bo'yicha o'quv-uslubiy hujjatlarni muntazam yangilab borish va ularning dolzarbligini ta'minlash	Mehnat harakatlari:
		1.Fanlar bo'yicha o'quv-uslubiy hujjatlarni belgilangan muddatlarda qayta ko'rib chiqish.
		2.Davlat ta'lim standartlari, malaka talablari va normativ-huquqiy hujjatlardagi o'zgarishlarni inobatga olgan holda hujjatlarni yangilash.
		3.Fan dasturlari, sillabuslar va o'quv-uslubiy majmualarning dolzarbligini ta'minlash.
		4.Ta'lim mazmunini zamonaviy fan-texnika yutuqlari va ilg'or tajribalar asosida boyitish.

		5.O'quv-uslubiy hujjatlarning kompetensiyaviy yondashuvga muvofiqligini ta'minlash.
		6. pedagogiklar va kafedralar bilan hamkorlikda yangilangan hujjatlarni kelishish va tasdiqlash.
		7.Yangilangan o'quv-uslubiy hujjatlarni ta'lim jarayoniga joriy etilishini nazorat qilish.
		8.O'quv-uslubiy hujjatlarni yangilash natijalarini tahlil qilish va baholash.
		Ko'nikmalar:
		Fanlar bo'yicha o'quv-uslubiy hujjatlarni muntazam tahlil qilish va yangilash
		Davlat ta'lim standartlari va me'yoriy hujjatlardagi o'zgarishlarni amaliyotga tatbiq etish
		Fan dasturlari, sillabuslar va o'quv-uslubiy majmualarni takomillashtirish
		Ta'lim mazmunini zamonaviy fan-texnika yutuqlari bilan boyitish
		Kompetensiyaviy yondashuv talablarini o'quv-uslubiy hujjatlarga joriy etish
		Pedagogiklar va kafedralar bilan samarali hamkorlik qilish
		Yangilangan o'quv-uslubiy hujjatlarni kelishish va tasdiqlash jarayonlarida ishtirok etish
		O'quv-uslubiy hujjatlarni ta'lim jarayoniga joriy etilishini nazorat qilish
		Bilimlar:
		Fanlar bo'yicha o'quv-uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish va yangilashga qo'yiladigan talablar
		Davlat ta'lim standartlari va malaka talablarining mazmuni hamda qo'llanish tartibi
		Ta'lim sohasiga oid amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar
		Kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'lim mazmunini shakllantirish tamoyillari
		Fan dasturlari, sillabuslar va o'quv-uslubiy majmualar tuzilmasi
		O'qitish natijalarini shakllantirish va yangilash qoidalari
		Ta'lim mazmunini zamonaviy fan-texnika yutuqlari bilan boyitish usullari
		O'quv-uslubiy ta'minot sifatini monitoring qilish va baholash asoslari
		Mehnat harakatlari:
		1.O'quv-uslubiy va metodik hujjatlarning mazmuni, tuzilmasi va sifatini tizimli tahlil qilish.

	D1.06.6- O'quv-uslubiy va metodik hujjatlar sifatini tahlil qilish, aniqlangan kamchiliklar bo'yicha xulosalar va takliflar tayyorlash	2.Davlat ta'lim standartlari, malaka talablari va normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiqligini baholash.
		3.Kompetensiyaviy yondashuv talablariga mosligini tekshirish.
		4.O'quv-uslubiy hujjatlarda mavjud kamchilik va nomutanosibliklarni aniqlash.
		5.Aniqlangan kamchiliklar bo'yicha tahliliy xulosalar tayyorlash.
		6.Kamchiliklarni bartaraf etish va takomillashtirish bo'yicha aniq takliflar ishlab chiqish.
		7.Tahlil natijalarini tegishli kafedralar va mas'ul bo'linmalarga taqdim etish.
		8.Takliflar ijrosini muvofiqlashtirish va bajarilishini monitoring qilish.
		9.O'quv-uslubiy ta'minot sifatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish.
		Ko'nikmalar:
		O'quv-uslubiy va metodik hujjatlarni kompleks tahlil qilish
		Davlat ta'lim standartlari va malaka talablariga muvofiqlikni baholash
		Kompetensiyaviy yondashuv asosida hujjatlar sifatini tekshirish
		O'quv-uslubiy hujjatlardagi kamchiliklarni aniqlash va tizimlashtirish
		Tahliliy xulosalar va asoslangan takliflar tayyorlash
		Kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqish
		Tahlil natijalarini yozma va og'zaki shaklda taqdim etish
		Kafedralar va mas'ul bo'linmalar bilan samarali muloqot qilish
		Takliflar ijrosini monitoring qilish
		Bilimlar:
		O'quv-uslubiy va metodik hujjatlarning mazmuni va tuzilmasiga qo'yiladigan talablar
		Davlat ta'lim standartlari va malaka talablarining mohiyati
		Kompetensiyaviy yondashuv nazariyasi va uni ta'lim jarayonida qo'llash usullari
		O'quv rejalar, fan dasturlari, sillabus va metodik qo'llanmalarni ishlab chiqish qoidalari
		Ta'lim sohasiga oid amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar
		Ta'lim sifatini baholash va monitoring qilish mezonlari
		O'qitish natijalarini shakllantirish tamoyillari

	Mas'uliyat va mustaqillik:	Kamchiliklarni aniqlash va tahliliy xulosalar tayyorlash usullari
		O'quv-uslubiy ta'minotni takomillashtirish mexanizmlari
		O'quv-uslubiy va metodik faoliyatni davlat ta'lim standartlari, malaka talablari hamda amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida tashkil etish va muvofiqlashtirish uchun javobgar bo'lish.
		Bakalavriat va magistratura ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv rejalari, fan dasturlari va sillabuslarning me'yoriy talablarga muvofiqligini ta'minlash.
		O'quv-uslubiy majmualar, metodik qo'llanmalar va boshqa o'quv hujjatlarining sifati hamda mazmuni uchun o'z vakolati doirasida javob berish.
		O'quv-uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish, ekspertizadan o'tkazish va takomillashtirish ishlarini mustaqil tashkil etish va muvofiqlashtirish.
		Fanlar bo'yicha o'quv-uslubiy hujjatlarni muntazam yangilash, ularning dolzarbligi va amaldagi talablarga mosligini ta'minlash.
		O'quv-uslubiy hujjatlarning kompetensiyaviy yondashuv asosida ishlab chiqilishi va belgilangan talablarga rioya etilishini nazorat qilish.
		O'quv-uslubiy faoliyat natijalarini tahlil qilish, aniqlangan kamchiliklar bo'yicha xulosalar hamda takliflarni mustaqil tayyorlash.
		O'quv-uslubiy hujjatlar bilan ishlashda axborotlarning ishonchligi, hujjatlarning to'g'ri rasmiylashtirilishi va saqlanishi uchun javobgar bo'lish.
		O'z vakolatlari doirasida qabul qilingan qarorlar va bajarilgan metodik ishlarning sifati hamda natijalari uchun shaxsiy javobgarlikni o'z zimmasiga olish.
		O'quv-uslubiy faoliyat samaradorligini oshirish, ilg'or pedagogik tajribalarni joriy etish va metodik ta'minotni takomillashtirish bo'yicha tashabbus ko'rsatish.
D2.6-O'quv-uslubiy va metodik faoliyat natijalari bo'yicha tahliliy ma'lumotlar, xulosalar va takliflar tayyorlash, ta'lim sifatini ta'minlash masalalarida oliy ta'lim tashkilotlari, tegishli vazirlik va idoralar bilan	D2.01.6-O'quv-uslubiy va metodik faoliyat natijalari bo'yicha tahliliy ma'lumotlarni muntazam yig'ish,	Mehnat harakatlari: 1.O'quv-uslubiy va metodik faoliyat natijalariga oid ma'lumotlarni muntazam ravishda yig'ish. 2.Kafedralar va boshqa tarkibiy bo'linmalardan taqdim etiladigan ma'lumotlarni qabul qilish va tekshirish. 3.Yig'ilgan ma'lumotlarni tahlil qilish, umumlashtirish va tizimlashtirish. 4.O'quv-uslubiy faoliyat samaradorligini baholash uchun tahliliy ko'rsatkichlar ishlab chiqish. 5.Tahliliy ma'lumotlar asosida xulosalar tayyorlash.

hamkorlikni muvofiglashtirish	umumlashtirish va tizimlashtirish	6.O'quv-uslubiy va metodik faoliyat bo'yicha hisobotlar va ma'lumotnomalar tayyorlash.
		7.Tahlil natijalarini rahbariyat va manfaatdor tomonlarga taqdim etish.
		8.Aniqlangan muammo va kamchiliklar bo'yicha takliflar ishlab chiqish.
		9.Ma'lumotlar bazasini yuritish va yangilab borish.
		10.O'quv-uslubiy faoliyatni takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilash.
		Ko'nikmalar:
		O'quv-uslubiy va metodik faoliyat natijalariga oid ma'lumotlarni yig'ish
		Turli manbalardan olingan ma'lumotlarni tekshirish va saralash
		Ma'lumotlarni tahlil qilish, umumlashtirish va tizimlashtirish
		Tahliliy ko'rsatkichlar va jadvallar tayyorlash
		Hisobotlar, ma'lumotnomalar va tahliliy xulosalar tayyorlash
		Axborotlar bazasi va elektron jadvallar bilan ishlash
		Tahlil natijalarini yozma va og'zaki shaklda taqdim etish
		Kafedralar va tarkibiy bo'linmalar bilan samarali hamkorlik qilish
		Aniqlangan muammolar bo'yicha takliflar ishlab chiqish
		Ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan tahliliy fikrlash
		O'quv-uslubiy va metodik faoliyat natijalariga oid ma'lumotlarni yig'ish
		Bilimlar:
		O'quv-uslubiy va metodik faoliyatni tashkil etish asoslari
		Ta'lim sohasiga oid amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar
		O'quv-uslubiy faoliyat natijalarini baholash mezonlari
		Ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish usullari
		Tahliliy ma'lumotlarni umumlashtirish va tizimlashtirish tamoyillari
		Hisobot va tahliliy ma'lumotnomalar tayyorlash talablari
		Axborotlar bazasi va elektron hisob-kitob tizimlari asoslari
		Ta'lim sifati monitoringi va tahlili usullari
		Ilg'or milliy va xorijiy o'quv-uslubiy tajribalar
		O'quv-uslubiy faoliyat samaradorligini oshirish mexanizmlari
		Mehnat harakatlari:

	D2.02.6- Ta'lim jarayonining o'quv-uslubiy va metodik ta'minoti holatini baholash hamda uning samaradorligini tahlil qilish	1.Ta'lim jarayonining o'quv-uslubiy va metodik ta'minoti holatini muntazam o'rganish.
		2.O'quv-uslubiy hujjatlar, metodik materiallar va ta'lim resurslarining mavjudligini va sifatiga baho berish.
		3.Davlat ta'lim standartlari va me'yoriy talablarga muvofiqligini tekshirish.
		4.Ta'lim jarayonida o'quv-uslubiy ta'minotdan foydalanish samaradorligini tahlil qilish.
		5.Ta'lim natijalari va o'quv-uslubiy ta'minot o'rtasidagi bog'liqlikni baholash.
		6.Kafedralar va tarkibiy bo'linmalar faoliyatini tahlil qilishda ishtirok etish.
		7.Aniqlangan muammo va kamchiliklar bo'yicha tahliliy xulosalar tayyorlash.
		8.O'quv-uslubiy va metodik ta'minotni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.
		9.Tahlil natijalarini rahbariyat va manfaatdor tomonlarga taqdim etish.
		10.Ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish.
		Ko'nikmalar:
		Ta'lim jarayonining o'quv-uslubiy va metodik ta'minoti holatini tahlil qilish
		O'quv-uslubiy hujjatlar va metodik materiallar sifatini baholash
		Davlat ta'lim standartlari va me'yoriy talablarga muvofiqlikni tekshirish
		Ta'lim jarayoni samaradorligini ko'rsatkichlar asosida tahlil qilish
		O'quv-uslubiy ta'minot va ta'lim natijalari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash
		Kafedralar va tarkibiy bo'linmalar faoliyatini tahlil qilishda ishtirok etish
		Aniqlangan muammolar bo'yicha tahliliy xulosalar tayyorlash
		Ta'lim jarayonini takomillashtirish bo'yicha asoslangan takliflar ishlab chiqish
		Tahlil natijalarini yozma va og'zaki shaklda taqdim etish
		Ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan tizimli fikrlash
		Ta'lim jarayonining o'quv-uslubiy va metodik ta'minoti holatini tahlil qilish
		Bilimlar:

		Ta'lim jarayonining o'quv-uslubiy va metodik ta'minoti tushunchasi va tarkibiy qismlari
		Davlat ta'lim standartlari va malaka talablarining mazmuni
		O'quv-uslubiy hujjatlar, metodik materiallar va ta'lim resurslariga qo'yiladigan talablar
		Ta'lim sohasiga oid amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar
		Ta'lim sifati va samaradorligini baholash mezonlari
		Ta'lim natijalari va o'quv-uslubiy ta'minot o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik
		Ta'lim jarayonini tahlil qilish va monitoring qilish usullari
		O'quv-uslubiy va metodik ta'minotni takomillashtirish mexanizmlari
		Ilg'or milliy va xorijiy ta'lim tajribalari
		Ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishga qaratilgan strategik yondashuvlar
	D2.03.6- Olingan tahliliy ma'lumotlar asosida xulosalar va ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqish	Mehnat harakatlari:
		1.Tahliliy ma'lumotlarni chuqur o'rganish va ularni tizimli tahlil qilish.
		2.Tahlil natijalari asosida asoslangan xulosalar chiqarish.
		3.Ta'lim jarayonida aniqlangan muammo va kamchiliklarni belgilash.
		4.Ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillarni baholash.
		5.Ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan amaliy va innovatsion takliflar ishlab chiqish.
		6.Takliflarni davlat ta'lim standartlari va me'yoriy talablar bilan muvofiqlashtirish.
		7.Ishlab chiqilgan takliflarni rahbariyat va manfaatdor tomonlarga taqdim etish.
		8.Takliflarni amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini tayyorlash.
		9.Takliflar ijrosi natijalarini monitoring qilish va baholash.
		Ko'nikmalar:
		Tahliliy ma'lumotlarni chuqur tahlil qilish va umumlashtirish
		Tahlil natijalari asosida asoslangan xulosalar chiqarish
		Muammolarni aniqlash va ularning sabablarini belgilash
		Ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillarni baholash
		Ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan amaliy va innovatsion takliflar ishlab chiqish
		Takliflarni me'yoriy talablar va strategik maqsadlarga muvofiqlashtirish
		Takliflarni aniq, tizimli va asoslangan tarzda bayon etish

		Tahliliy xulosa va takliflarni yozma shaklda rasmiylashtirish
		Takliflarni taqdim etish va himoya qilish
		Bilimlar:
		Ta'lim sifatini baholash va tahlil qilish nazariy asoslari
		Tahliliy ma'lumotlar bilan ishlash va xulosa chiqarish usullari
		Davlat ta'lim standartlari va malaka talablari
		Ta'lim sohasiga oid amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar
		Ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishga qaratilgan zamonaviy yondashuvlar
		Innovatsion ta'lim texnologiyalari va ularni joriy etish imkoniyatlari
		Strategik rejalashtirish va rivojlantirish asoslari
		Muammolarni tahlil qilish va yechimlar ishlab chiqish usullari
		Ta'lim sifati monitoringi va baholash mezonlari
		Ilg'or milliy va xorijiy ta'lim tajribalari
	D2.04.6- O'quv-uslubiy va metodik faoliyat natijalari yuzasidan axborotnomalar, ma'ruzalar va hisobotlar tayyorlash	Mehnat harakatlari:
		1.O'quv-uslubiy va metodik faoliyat natijalarini yig'ish va tizimlashtirish.
		2.Tahliliy ma'lumotlarni umumlashtirish va qayta ishlash.
		3.Olingan ma'lumotlar asosida axborotnomalar tayyorlash
		4.O'quv-uslubiy va metodik faoliyat bo'yicha ma'ruzalar matnini ishlab chiqish.
		5.Yarim yillik va yillik hisobotlarni belgilangan shakl va talablar asosida tayyorlash.
		6.Hisobot va axborotnomalarni me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq rasmiylashtirish.
		7.Tayyorlangan hujjatlarda aniqlik, ishonchlilik va tizimlilikni ta'minlash.
		8.Hisobot materiallarini rahbariyat va tegishli tuzilmalarga taqdim etish.
		9.Hisobot va ma'ruzalar asosida xulosalar hamda tavsiyalar ishlab chiqish.
		10.Tayyorlangan hujjatlarni belgilangan tartibda saqlash va arxivlash.
		Ko'nikmalar:
		O'quv-uslubiy va metodik faoliyat natijalarini tahlil qilish
		Ma'lumotlarni yig'ish, saralash va tizimlashtirish
		Axborotnomalar, ma'ruzalar va hisobotlarni tuzish

		Tahliliy ma'lumotlarni aniq va tushunarli shaklda bayon etish Hisobot hujjatlarini me'yoriy talablar asosida rasmiylashtirish Rasmiy ish yuritish uslubida yozish Xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish Matnli va jadvalli ma'lumotlar bilan ishlash Tayyorlangan ma'ruza va hisobotlarni taqdim etish Bilimlar: O'quv-uslubiy va metodik faoliyatni tashkil etish asoslari Ta'lim jarayonini tahlil qilish va baholash usullari Axborotnoma, ma'ruza va hisobotlar tayyorlash qoidalari Rasmiy ish yuritish va hujjatlarni rasmiylashtirish talablari Davlat ta'lim standartlari va malaka talablari Ta'lim sohasiga oid amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar Tahliliy ma'lumotlar bilan ishlash usullari Hisobot berish shakllari va muddatlari Ilg'or milliy va xorijiy ta'lim-uslubiy tajribalar
	D2.05.6- Ta'lim sifatini ta'minlash masalalarida oliy ta'lim tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish va muvofiqlashtirish	Mehnat harakatlari: 1. Ta'lim sifatini ta'minlash bo'yicha oliy ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish. 2.Hamkor tashkilotlar bilan qo'shma ish rejalari va tadbirlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish. 3.Ta'lim sifati bo'yicha tajriba almashish uchrashuvlari, seminar va davra suhbatlarini tashkil etish. 4.Ta'lim sifatini oshirishga oid me'yoriy hujjatlar ijrosini muvofiqlashtirish. 5.Hamkorlik doirasida o'quv-uslubiy hujjatlar va ilg'or tajribalarni o'rganish. 6.Ta'lim sifati monitoringi natijalarini tahlil qilish va hamkor tashkilotlarga taqdim etish. 7.Hamkorlik jarayonida yuzaga kelgan muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish. 8.Ta'lim sifatini baholashga oid ma'lumotlarni yig'ish, umumlashtirish va rasmiylashtirish. 9.Hamkor tashkilotlar bilan xizmat yozishmalari va hisobotlarni tayyorlash. 10.Ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan loyihalar va tashabbuslarni amalga oshirishda ishtirok etish. Ko'nikmalar:

	QCL7527	Oliy ta'lim tashkilotlari bilan samarali xizmat hamkorligini yo'lga qo'yish.
		Muzokaralar olib borish va ishbilarmonlik muloqotini tashkil etish.
		Hamkorlik rejalari va tadbirlarini ishlab chiqish hamda muvofiqlashtirish.
		Ta'lim sifati monitoringi natijalarini tahlil qilish va baholash.
		Hisobotlar, ma'lumotnomalar va xizmat hujjatlarini tayyorlash.
		Me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan ishlash va ularni amaliyotda qo'llash.
		O'quv-uslubiy hujjatlarni tahlil qilish va takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.
		Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib hamkorlik ishlarini tashkil etish.
		Jamoadi ishlash va turli bo'linmalar faoliyatini muvofiqlashtirish.
		Muammolarni tahlil qilish va ularni hal etish bo'yicha asoslangan qarorlar qabul qilish.
		Bilimlar:
		Oliy ta'lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar.
		Ta'lim sifatini ta'minlash va ichki sifat nazorati tamoyillari.
		Davlat ta'lim standartlari va malaka talablari.
		Ta'lim sifatini monitoring qilish va baholash usullari.
		O'quv-uslubiy faoliyatni tashkil etish asoslari.
		Oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlikni tashkil etish tamoyillari.
		Ish yuritish, xizmat yozishmalari va rasmiy hujjatlarni rasmiylashtirish qoidalari.
		Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va elektron hujjat aylanishi tizimlari.
		Loyiha boshqaruvi va hamkorlikni muvofiqlashtirish asoslari.
		Kasbiy etika, xizmat muloqoti madaniyati va axborot xavfsizligi talablari.
	D2.06.6- Tegishli vazirlik va idoralar bilan metodik va axborot almashinuvi	Mehnat harakatlari:
		1.Tegishli vazirlik va idoralar bilan metodik hamkorlikni yo'lga qo'yish.
		2.Metodik va axborot almashinuvi bo'yicha ish rejalari ishlab chiqish va amalga oshirish.

QCL7527	jarayonlarini tashkil etish	3.Vazirlik va idoralardan kelgan metodik materiallar hamda tavsiyalarni qabul qilish, tahlil etish va ijrochilarga yetkazish.
		4.Rasmiy yozishmalar, so'rovlar va javob xatlarini tayyorlash hamda yuritish.
		5.Hamkor tashkilotlar bilan yig'ilishlar, seminarlar va uchrashuvlarni tashkil etish.
		6.Metodik va axborot almashinuvi natijalarini umumlashtirish va hisobotlar tayyorlash.
		7.Me'yoriy-huquqiy hujjatlardagi o'zgarishlarni kuzatish va manfaatdor bo'linmalarga yetkazish.
		8.Hamkorlik doirasida olingan ma'lumotlarning to'g'riligini va dolzarbligini nazorat qilish.
		9.Elektron hujjat aylanishi va axborot tizimlari orqali ma'lumot almashinuvini tashkil etish.
		10.Topshiriqlar ijrosini monitoring qilish va ularning bajarilishi yuzasidan axborot tayyorlash.
		Ko'nikmalar:
		Vazirlik va idoralar bilan ishbilarmonlik muloqotini samarali tashkil etish.
		Rasmiy xatlar, ma'lumotnomalar va hisobotlarni tayyorlash.
		Me'yoriy-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish va amaliyotda qo'llash.
		Metodik materiallarni tizimlashtirish va umumlashtirish.
		Elektron hujjat aylanishi tizimlaridan foydalanish.
		Axborotlarni yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish.
		Hamkorlik faoliyatini rejalashtirish va muvofiqlashtirish.
		Ofis dasturlari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish.
		Vazifalarni ustuvorlashtirish va belgilangan muddatlarda bajarish.
		Jamoa va tashqi tashkilotlar bilan samarali hamkorlik qilish.
		Bilimlar:
		Ta'lim sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlar.
		Vazirlik va idoralar bilan xizmat yozishmalarini yuritish tartibi.
		O'quv-uslubiy va metodik faoliyatni tashkil etish asoslari.
		Ish yuritish va hujjatlarni rasmiylashtirish qoidalari.
		Elektron hujjat aylanishi tizimlari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.
		Axborotni yig'ish, tahlil qilish va saqlash usullari.

	QCL7527	Davlat organlari bilan hamkorlik qilish tamoyillari.
		Hisobotlar tayyorlash va ma'lumotlarni umumlashtirish usullari.
		Axborot xavfsizligi va xizmat ma'lumotlarining maxfiyligini ta'minlash talablari.
		Kasbiy etika, xizmat muloqoti va rasmiy yozishmalar madaniyati.
	Mas'uliyat va mustaqillik:	O'quv-uslubiy va metodik faoliyat natijalari bo'yicha tayyorlanadigan axborotnoma, ma'ruza va hisobotlarning ishonchliligi va xolisligi uchun shaxsiy javobgarlik
		Ma'lumotlarni o'z vaqtida yig'ish, tahlil qilish va belgilangan muddatlarda hisobotlarni taqdim etish uchun mas'ullik
		Hujjatlarni me'yoriy-huquqiy talablarga muvofiq to'g'ri rasmiylashtirish uchun javobgarlik
		Faoliyat natijalarini mustaqil tahlil qilish va asoslangan xulosalar chiqara olish
		Ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan takliflarni mustaqil ishlab chiqish
		Yuklatilgan vazifalarni nazoratsiz holda, tashabbuskorlik bilan bajara olish
		Xizmat vazifalarini bajarishda maxfiylik va xizmat etikasini saqlash
		Kamchiliklar aniqlangan hollarda ularni bartaraf etish bo'yicha choralar taklif qilish va amalga oshirishda faol ishtirok etish
		O'z faoliyati natijalari uchun hisobdorlikni ta'minlash
		Ta'lim jarayonini takomillashtirishga qaratilgan qarorlarni qabul qilishda mustaqillik va qat'iyat ko'rsatish
Texnik va/yoki texnologik talab		Texnik vositalarga umumiy talablar: Noutbuk yoki shaxsiy kompyuter, proektor yoki interaktiv doska Printer/skaner, smartfon yoki planshet Internet Dasturiy ta'minot va platformalarni bilish: Oflayn va onlayn tahrirlash vositalari (Microsoft Office (Word, Excel, PowerPoint), Google Docs, Sheets, Slides), test tuzish va baholash vositalari (Google Forms, Quizizz, Kahoot, Socrative) Prezentatsiya va infografika yaratish dasturlari (Canva, Prezi, Piktochart), texnik yo'nalishlar uchun: AutoCAD, SolidWorks, MATLAB, LabVIEW, Arduino IDE, simulyatorlar: Proteus, Multisim va h.k.

	Excel'da formula va avtomatlashtirish, CRM tizimlari, elektron hujjat aylanmasi Dizayn va san'at: Adobe Photoshop, Illustrator, CorelDRAW, innovatsion texnologiyalardan foydalanish qobiliyati: STEM/STEAM loyihalarida qatnashish, AR/VR vositalar yordamida amaliy mashg'ulotlarni boyitish, onlayn kurs va sertifikatlar: Google for Education, UNESCO, Microsoft Educator va boshqalar
--	---

Kasbning nomi:	O'quv jarayonini metodik ta'minlash va darsliklar bo'yicha uslubchi
Mashg'ulot nomining kodi:	23510010
TMR bo'yicha malaka darajasi:	6
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Tavsiya etiladi
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	O'quv jarayonini metodik ta'minlash va darsliklar bo'yicha uslubchi uchun amaliy tajriba ish stajiga qo'yiladigan talablar quyidagicha shakllantiriladi. Nomzod kamida 2-4 yil pedagogik yoki o'quv-uslubiy faoliyat yo'nalishida ish tajribasiga ega bo'lishi lozim. Oliy yoki o'rta maxsus ta'lim muassasalarida ishlaganlik, ayniqsa o'quv-uslubiy bo'limlar, metodik xizmatlar yoki darsliklar bilan ishlashga oid lavozimlarda faoliyat yuritganlik ustunlik hisoblanadi. Nomzod o'quv jarayonini metodik ta'minlash bo'yicha o'quv rejalari, fan dasturlari (syllabus), ishchi o'quv dasturlarini ishlab chiqishda yoki takomillashtirishda ishtirok etgan bo'lishi kerak. Shuningdek, darsliklar, o'quv qo'llanmalar, metodik ko'rsatmalar va boshqa o'quv adabiyotlarini tayyorlash, tahrirlash yoki ekspertizadan o'tkazish bo'yicha amaliy tajribaga ega bo'lishi zarur.
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	Uslubchi quyidagi kasbiy layoqatlarga ega bo'lishi lozim: ta'lim dasturlari, o'quv rejalari va fan (modul) dasturlari asosida o'quv jarayonini metodik jihatdan ta'minlash; darsliklar, o'quv qo'llanmalar va elektron o'quv resurslarini ishlab chiqish, ekspertizadan o'tkazish va takomillashtirish jarayonlarini tashkil etish; o'quv-uslubiy majmualar, sillabuslar va baholash vositalarini ishlab chiqish bo'yicha metodik ko'mak ko'rsatish; modul asosida o'qitish, o'quv jarayonini texnologik xaritalashtirish va interaktiv metodlarni joriy etish; o'quv-uslubiy ishlar holatini tahlil qilish, monitoring olib borish va xulosalar tayyorlash; professor-o'qituvchilar uchun metodik seminarlar, treninglar va maslahatlarni tashkil etish; o'quv-uslubiy hujjatlarni qog'oz va elektron shaklda yuritish hamda ularning me'yoriy hujjatlarga muvofiqligini ta'minlash. Metodist quyidagi shaxsiy kompetensiyalarga ega bo'lishi lozim: mas'uliyatlilik -yuklatilgan vazifalarni belgilangan muddatlarda va sifatli bajarish; analitik va tizimli fikrlash-o'quv-uslubiy materiallarni chuqur tahlil qilish;

		muloqot va hamkorlik kompetensiyasi-pedagog xodimlar va rahbariyat bilan samarali muloqot olib borish; tashabbuskorlik va innovatsionlik-zamonaviy metodik yondashuvlarni taklif etish va joriy etish; o'zini rivojlantirishga intilish-metodik va kasbiy bilimlarni muntazam oshirib borish; stressga chidamlilik-yuqori mas'uliyat va yuklama sharoitida samarali ishlash.	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:		Bakalavriat o'rta maxsus kasbiy ta'lim va amaliy tajriba	
Informal ta'lim bilan bog'liqligi:		-	
Kasbiy standartlar reestrida mavjudligi:		-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:			
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:	
Mehnat funksiyalarining tavsifi			
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari		
E1.6-O'quv jarayonini davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlariga muvofiq metodik jihatdan ta'minlash	E1.01.6-O'quv jarayonini davlat ta'lim standartlari, malaka talablari va tasdiqlangan o'quv dasturlariga muvofiq tashkil etilishini metodik jihatdan ta'minlash	O'qitish natijalari	
		Mehnat harakatlari:	
		1.O'quv jarayonini davlat ta'lim standartlari, malaka talablari va tasdiqlangan o'quv dasturlari asosida tashkil etilishini tahlil qilish.	
		2.O'quv reja va fan dasturlarining amaldagi standart va talablarga muvofiqligini tekshirish.	
		3.O'quv jarayonini tashkil etish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish.	
		4.Kafedra va fakultetlarga metodik ko'mak ko'rsatish.	
		5.O'quv jarayonida qo'llanilayotgan metodik materiallar sifatini baholash.	
		6.Ta'lim jarayonida aniqlangan metodik kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha takliflar berish.	
		7.O'quv jarayonini me'yoriy hujjatlarga muvofiq tashkil etish yuzasidan monitoring olib borish.	
		8.Ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish va amaliyotga joriy etish.	
		9.Metodik ishlar natijalarini hujjatlashtirish va hisobotlar tayyorlash.	
		10.O'quv jarayonini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqish.	
		Ko'nikmalar:	

		Davlat ta'lim standartlari va malaka talablarini amaliyotda qo'llay olish
		O'quv reja va tasdiqlangan fan dasturlarini tahlil qilish va baholash
		O'quv jarayonini me'yoriy talablarga muvofiq metodik jihatdan tashkil etish
		Kafedra va fakultetlarga metodik maslahatlar berish
		Metodik materiallar sifatini baholash va takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish
		O'quv jarayonidagi metodik kamchiliklarni aniqlash va bartaraf etish
		Monitoring natijalarini tahlil qilish va xulosalar chiqarish
		Ilg'or pedagogik texnologiyalar va metodlarni amaliyotga joriy etish
		Metodik ishlar bo'yicha hisobot va axborotnomalar tayyorlash
		Bilimlar:
		Davlat ta'lim standartlari (DTS) va ularning mazmuni
		Malaka talablari hamda o'quv natijalarini belgilash tamoyillari
		Tasdiqlangan o'quv rejalari va fan dasturlari tuzilishi
		O'quv jarayonini tashkil etishning me'yoriy-huquqiy asoslari
		O'quv-uslubiy va metodik ta'minotni shakllantirish qoidalari
		Kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'limni tashkil etish prinsiplari
		Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va o'qitish usullari
		Ta'lim sifatini monitoring qilish va baholash mezonlari
		Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini rejalashtirish tartibi
		Ilg'or milliy va xorijiy ta'lim-metodik tajribalar
	E1.02.6- O'quv rejalari, fan dasturlari va sillabuslarning davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini o'rganish va tahlil qilish	Mehnat harakatlari:
		1.O'quv rejalari, fan dasturlari va sillabuslarni yig'ish va tizimlashtirish.
		2.Hujjatlarning davlat ta'lim standartlari va malaka talablariga muvofiqligini o'rganish.
		3.Fan dasturlari va sillabus mazmunining o'quv rejalari bilan uyg'unligini tahlil qilish.
		4.Kompetensiya va o'quv natijalarining DTS talablariga mosligini tekshirish.
		5.Soatlar taqsimoti va o'quv yuklamasining me'yorlarga muvofiqligini baholash.

		6. Aniqlangan kamchilik va nomutanosibliklarni ro'yxatga olish.
		7. Kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha asoslangan takliflar ishlab chiqish.
		8. Tahlil natijalarini xulosalar va tavsiyalar shaklida rasmiylashtirish.
		9. Tahlil materiallarini tegishli tuzilmalar va rahbariyatga taqdim etish.
		10. O'quv-uslubiy hujjatlarni takomillashtirish bo'yicha monitoring olib borish.
		Ko'nikmalar:
		O'quv rejalari, fan dasturlari va sillabuslarni tahlil qilish ko'nikmasi
		Davlat ta'lim standartlari va malaka talablarini amaliyotda qo'llay olish
		Hujjatlarni me'yoriy talablar bilan solishtirish va muvofiqlikni baholash
		Kompetensiya va o'quv natijalarini to'g'ri aniqlash va baholash
		Soatlar taqsimoti va o'quv yuklamasini tahlil qilish
		Kamchilik va nomutanosibliklarni aniqlash ko'nikmasi
		Asoslangan xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish
		Tahlil natijalarini yozma ravishda rasmiylashtirish
		Bilimlar:
		Davlat ta'lim standartlari va ularga qo'yiladigan talablar
		Malaka talablari hamda o'quv natijalarini belgilash tamoyillari
		O'quv rejalari tuzilishi va ishlab chiqish tartibi
		Fan dasturlari va sillabuslarning mazmuni va tuzilmasi
		Kompetensiyaviy yondashuv asoslari
		Soatlar taqsimoti va o'quv yuklamasi me'yorlari
		O'quv-uslubiy hujjatlarni ekspertiza qilish usullari
		Ta'lim jarayonini me'yoriy-huquqiy jihatdan ta'minlash asoslari
		Ta'lim sifatini baholash va monitoring qilish mezonlari
		Ilg'or milliy va xorijiy ta'lim-metodik tajribalar
	E1.03.6- Ta'lim jarayonining mazmuni, shakli va usullarini me'yoriy talablarga mos holda	Mehnat harakatlari:
		1. Ta'lim jarayonining amaldagi mazmuni, shakli va o'qitish usullarini o'rganish va tahlil qilish.
		2. Davlat ta'lim standartlari, malaka talablari va boshqa me'yoriy hujjatlar talablarini tahlil qilish.
		3. Ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan pedagogik usullar samaradorligini baholash.

	takomillashtirish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish	4. Aniqlangan kamchilik va ehtiyojlar asosida metodik takomillashtirish yo'nalishlarini belgilash.
		5. Ta'lim mazmunini yangilash bo'yicha metodik takliflar ishlab chiqish.
		6. O'qitish shakllari va usullarini takomillashtirishga qaratilgan metodik tavsiyalar tayyorlash.
		7. Innovatsion pedagogik texnologiyalar va ilg'or tajribalarni hisobga olgan holda tavsiyalar ishlab chiqish.
		8. Metodik tavsiyalarni me'yoriy talablarga muvofiq rasmiylashtirish.
		9. Ishlab chiqilgan metodik tavsiyalarni tegishli tuzilmalarga taqdim etish.
		10. Metodik tavsiyalar ijrosi bo'yicha monitoring va tahlil ishlarini olib borish.
		Ko'nikmalar:
		Ta'lim jarayoni mazmuni, shakli va o'qitish usullarini tahlil qilish
		Davlat ta'lim standartlari va me'yoriy talablarni amaliyotda qo'llay olish
		Pedagogik usullar samaradorligini baholash
		Ta'lim jarayonidagi kamchilik va ehtiyojlarni aniqlash
		Metodik takomillashtirish bo'yicha asoslangan takliflar ishlab chiqish
		Innovatsion va interaktiv o'qitish usullarini joriy etish ko'nikmasi
		Metodik tavsiyalarni aniq va tizimli shaklda bayon etish
		Metodik hujjatlarni me'yoriy talablarga muvofiq rasmiylashtirish
		Kafedra va fakultetlarga metodik maslahatlar berish
		Ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan analitik va strategik fikrlash
		Bilimlar:
		Davlat ta'lim standartlari, malaka talablari va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar
		Ta'lim jarayoni mazmunini shakllantirish tamoyillari
		O'qitish shakllari va usullarining pedagogik-nazariy asoslari
		Kompetensiyaviy yondashuv va o'quv natijalarini belgilash usullari
		Zamonaviy pedagogik va innovatsion ta'lim texnologiyalari
		Ta'lim jarayoni samaradorligini baholash va monitoring qilish usullari
		O'quv-uslubiy va metodik hujjatlarni tayyorlash talablari

		Ta'lim sifatini oshirish bo'yicha milliy va xalqaro tajribalar
		Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini tashkil etish tartibi
E1.04.6 - Fanlar bo'yicha o'quv-uslubiy hujjatlarning to'g'ri ishlab chiqilishi va amaliyotga joriy etilishini metodik jihatdan qo'llab-quvvatlash		Mehnat harakatlari:
		1.Fanlar bo'yicha o'quv-uslubiy hujjatlarni yig'ish va o'rganish.
		2.O'quv-uslubiy hujjatlarning davlat ta'lim standartlari va me'yoriy talablarga muvofiqligini tekshirish.
		3.Fan dasturlari, sillabus va metodik materiallar tuzilishi va mazmunini tahlil qilish.
		4.O'quv-uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish bo'yicha metodik tavsiyalar berish.
		5.Kafedra va professor-o'qituvchilarga metodik maslahatlar ko'rsatish.
		6.O'quv-uslubiy hujjatlarni amaliyotga joriy etish jarayonini monitoring qilish.
		7.Aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.
		8.Ilg'or pedagogik tajribalar va innovatsion yondashuvlarni amaliyotga joriy etishga ko'maklashish.
		9.Metodik qo'llab-quvvatlash natijalarini hujjatlashtirish.
		10.O'quv-uslubiy faoliyat samaradorligini baholash va takomillashtirish choralarini ishlab chiqish.
		Ko'nikmalar:
		Fanlar bo'yicha o'quv-uslubiy hujjatlarni tahlil qilish
		Davlat ta'lim standartlari va me'yoriy talablarni amaliyotda qo'llay olish
		O'quv-uslubiy hujjatlarni to'g'ri ishlab chiqish bo'yicha metodik maslahatlar berish
		Professor-o'qituvchilar bilan samarali hamkorlik qilish
		O'quv-uslubiy hujjatlarni amaliyotga joriy etish jarayonini monitoring qilish
		Kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish
		Ilg'or pedagogik tajribalarni tahlil qilish va joriy etish
		Metodik tavsiyalarni aniq va tushunarli shaklda bayon etish
		Hujjatlarni me'yoriy talablarga muvofiq rasmiylashtirish
		Bilimlar:
		Davlat ta'lim standartlari, malaka talablari va amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar

		Fanlar bo'yicha o'quv-uslubiy hujjatlar (o'quv reja, fan dasturi, sillabus, metodik qo'llanmalar) tuzilishi va mazmuni
		Kompetensiyaviy yondashuv va o'quv natijalarini shakllantirish tamoyillari
		O'quv-uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish va ekspertizadan o'tkazish tartibi
		Zamonaviy pedagogik va innovatsion ta'lim texnologiyalari
		Ta'lim jarayonini metodik jihatdan ta'minlash usullari
		Oliy ta'lim muassasalarida o'quv-uslubiy ishlarni tashkil etish tartibi
		Ta'lim sifatini monitoring qilish va baholash mezonlari
		Ilg'or milliy va xorijiy ta'lim-metodik tajribalar
	Mas'uliyat va mustaqillik:	O'quv jarayonining davlat ta'lim standartlari, malaka talablari va tasdiqlangan o'quv dasturlariga muvofiq tashkil etilishini metodik jihatdan ta'minlash uchun javobgar bo'lish.
		O'quv rejalari, fan dasturlari va sillabuslarning amaldagi me'yoriy hujjatlarga muvofiqligini mustaqil tahlil qilish va baholash.
		O'quv-uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish hamda takomillashtirish bo'yicha metodik tavsiyalarni mustaqil tayyorlash.
		Ta'lim jarayonining mazmuni, shakli va usullarini takomillashtirish yuzasidan asoslangan takliflar ishlab chiqish.
		Fanlar bo'yicha o'quv-uslubiy hujjatlarning sifatli tayyorlanishi va amaliyotga joriy etilishini metodik jihatdan muvofiqlashtirish.
		O'quv-uslubiy hujjatlardagi kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar berish.
		O'quv-uslubiy faoliyat natijalari, tayyorlangan xulosalar va metodik tavsiyalarning ishonchliligi hamda sifatiga javob berish.
		O'z vakolatlari doirasida metodik masalalar bo'yicha mustaqil qarorlar qabul qilish va ularning ijrosi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olish.
		O'quv-uslubiy hujjatlar bilan ishlashda me'yoriy-huquqiy hujjatlar, xizmat intizomi va axborot maxfiyligi talablariga rioya qilish.
		O'quv-uslubiy faoliyat samaradorligini oshirish, ilg'or pedagogik tajribalarni joriy etish va ta'lim sifatini

		yaxshilashga qaratilgan tashabbuslarni ilgari surish hamda ularni amalga oshirish uchun mas'ul bo'lish.
E2.6- Darsliklar, o'quv qo'llanmalar va metodik materiallarni tahlil qilish, tanlash va takomillashtirish bo'yicha takliflar berish	E2.01.6- Amaldagi darsliklar, o'quv qo'llanmalar va metodik materiallarni davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari va malaka talablari asosida tahlil qilish	Mehnat harakatlari:
		1. Amalda qo'llanilayotgan darsliklar, o'quv qo'llanmalar va metodik materiallarni yig'ish va ro'yxatga olish.
		2. Darslik va o'quv qo'llanmalar mazmunini davlat ta'lim standartlari bilan solishtirib o'rganish.
		3. O'quv materiallarining tasdiqlangan o'quv dasturlari va malaka talablariga muvofiqligini tahlil qilish.
		4. Mazmunning fan bo'yicha kompetensiya va o'quv natijalarini qamrab olish darajasini baholash.
		5. Materiallarning ilmiylik, izchillik va amaliyotga yo'naltirilganlik darajasini aniqlash.
		6. Aniqlangan kamchilik va nomutanosibliklarni tizimlashtirish.
